

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 113 (1174), 2024-yil 8-iyun, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLOVCHI ZAMONAVIY MARKAZ, MAHALLALARDAGI YANGI SPORT OBYEKTлари BUNYODKORLIK NAMUNASI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 7-iyun kuni poytaxtimizning Yakkasaroy va Yashnobod tumanlariga tashrif buyurib, jamoat xavfsizligi va sport sohalaridagi yangi obyektlar hamda mahallalarda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.



Davlatimiz rahbari dastlab Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamentining Muvofiqlashtirish va monitoring qilish markazini borib ko‘rdi.

Bu markaz O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi doirasida tashkil etilgan. Majmua mukammal ta’minlanib va zamonaviy jihozlanib, shu yil martda ishga tushirilgan.

Markaz jamoat xavfsizligi jarayonlarini qamrab olgan yagona axborot makonidir. Bu yerda joylardagi vaziyat va xodimlarning ish-harakati raqamli texnologiyalar orqali

tahlil qilib boriladi. Xususan, 10 mingdan ortiq profilaktika inspektorlarining faoliyati 6 ta yo‘nalish bo‘yicha nazorat qilinadi va baholanadi.

Bunda “E-Jamoat xavfsizligi”, “E-Ijtimoiy vaziyat” kabi dasturlar, yo‘l harakati xavfsizligi, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat tartibini saqlash xizmatlarining yagona axborot tizimlari hamda 6 mingdan ziyod “aqli” kuzatuv kameralari integratsiyasi qo‘l kelmog‘da. Shuningdek, markazda videoaloqa orqali profilaktika inspektorlari, yo‘l-patrol, post-patrol va probatsiya xodimlari uchun

masofaviy o‘quvlar o‘tkaziladi. Ommaviy tadbirlarni modellashtirish orqali nostandart vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish va tezkor choralar ko‘rish o‘rgatiladi.

Davlatimiz rahbari bu masalaga alohida e’tibor qaratib, soha xodimlari yuqori texnologiyalarni yaxshi bilishi lozimligini ta’kidladi.

Bugungi kunda barcha sohalarida sun‘iy intellektning o‘rni kengayib bormog‘da. Insonlarga qulaylik yaratadigan dasturlar bilan birga kiberjinoatchilik, firibgarlik usullari ham ko‘paymog‘da. Bunday jinoyatlarining oldini olish, aniqlash va fosh etish uchun ichki

ishlar xodimi undan-da ilg‘or, ziyarak bo‘lishi kerak.

Shu bois, markazdagi uchrashuvga huquq-tartibot idoralari huzuridagi oliy o‘quv yurtlari rektorlari taklif etildi. Ulardagi o‘quv dasturlarini shu nuqtayi nazardan takomillashtirish, dual ta’lim tizimini joriy etish, darslar va ilmiy ishlarning hayot bilan hamnafasligini ta’minlash zarurligi ta’kidlandi.

Ichki ishlar vazirligida uchuvchisiz qurilmalarni qo‘llash bo‘yicha tuzilma tashkil etish vazifasi qo‘yildi. Jinoyatchilik profilaktikasini kuchaytirish, ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta’minlash borasida qo‘shimcha topshiriqlar berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrda farmoni bilan tasdiqlangan jamoat xavfsizligi bo‘yicha strategiyada 2025-yil yakuniga qadar tizimni raqamlashtirishni 90 foizga yetkazish belgilangan. Tashrif chog‘ida davlatimiz rahbariga shu borada axborot berildi.

Bu jarayon uch bosqichda amalga oshirilmoqda.

Birinchi bosqichda muammolar o‘rganilib, ikkinchisida shu asosida mutaxassislar va dasturlar tayyorlandi. Jumladan, 66 ta axborot tizimi va modullari ishlab chiqildi. Ularga vazirlik va idoralarning 77 ta hamda Ichki ishlar vazirligining 25 ta axborot tizimi integratsiya qilindi. Jamoat xavfsizligi bo‘linmalari xodimlari 18 mingdan ziyod planshetlar bilan ta’minlandi hamda raqamli qurilmalardan samarali foydalanish bo‘yicha o‘qitildi.

Natijada 155 ta hisobot, 37 ta ish yuritish sohasi, yuzga yaqin qaydnom va yig‘ma materiallar raqamlashtirildi. Buning hisobiga 213 milliard so‘m tejalishiga erishilgan.

Endi, uchinchi bosqichda Ma’lumotlarni qayta ishlash markazi tashkil etib, sohaga sun‘iy intellektni keng joriy qilish, uskunalarni mahalliyashtirish kabi maqsadlar qo‘yilgan.

Shu yerda ichki ishlar tizimida qo‘llanilayotgan zamonaviy texnika va anjomlar namoyish qilindi.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat

Mirziyoyev poytaxtimizning Yakkasaroy tumanida bunyod etilgan suv sporti saroyini ko‘zdan kechirdi.

O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasiga qarashli mazkur majmua suv sporti rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida qurilgan. E’tiborsiz, bu yerda ham professional sportchilar, ham havaskorlar uchun sharoit yaratilgan.

50 metrli basseyn va 500 o‘rinli tomoshagohga ega katta zalda xalqaro miqyosdagi musobaqalar, terma jamoamizning o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlarini o‘tkazish uchun zamonaviy sharoitlar bor. Balandlikdan sakrash va kichik havzalarda bolalar suv sportini o‘rganadi.

Majmua yoshlar, mehnat jamoalari va faxriylar salomatliklarini mustahkamlashi mumkin. U bir vaqtning o‘zida 100 nafar, bir kunda mingdan ziyod aholiga xizmat ko‘rsatish quvvatiga ega.

Ikkinchi qavatda ma’muriyat va murabbiylar xonasi, konferensiya zali, trenajyor xonasi hamda sport sharhlovchilari uchun maxsus xonalar joylashgan.

Majmua negizida Suv sporti maktabi tashkil etilgan. Davlatimiz rahbari bu yerda yosh sportchilarning mashg‘ulotlarini kuzatdi. Ularning intilishlarini qo‘llab-quvvatlab, ulkan yutuqlarga ruhlantirdi.

Bu yil Parij shahrida o‘tkaziladigan yozgi Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi tizimidan 13 nafar sportchi litsenziya qo‘lga kiritgan. Prezidentimiz mazkur sportchilar va murabbiylar bilan suhbatlashdi.

— Shahar-u qishloqlarda sport majmualari qurib, uni ommalashtirishga katta e’tibor beraymiz. Chunki sport bilan shug‘ullangan yoshlar kam bo‘lmaydi, sog‘lom bo‘ladi, bolalariniyam shunday tarbiyalaydi. Sizdek professional sportchilar bu yo‘lda yoshlarga ham iftixor, ham o‘rnak bo‘ladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi Dilbog‘ mahallasida ham bo‘lib, aholi turmush sharoiti bilan yaqindan tanishdi.

Mahallada 5 ming 200 nafardan ortiq aholi yashaydi. 26 ta ko‘p qavatli uy, maktab va bog‘chalar, savdo shoxobchalari atrofi obod qilingan.

Yurtimizda har bir mahalla ixtisoslashuvidan kelib chiqib rivojlantirilmoqda. Dilbog‘liklar, asosan, tadbirkorlik va hunarmandlik bilan shug‘ullanadi. 15 ta savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchasi, bitta ishlab chiqarish korxonasi, ta’lim muassasalarida aholi doimiy ish bilan band.

O‘tgan yili aholini tadbirkorlikka jalb qilish uchun 13 ta loyihaga kredit ajratilgan. 300 ga yaqin fuqaro yangi ishga joylashtirilgan. Yoshlarni kasbga o‘rgatish uchun monomarkaz tashkil etilgan.

Davlatimiz rahbari mahalladagi qurilish va obodonlashtirish ishlari ko‘zdan kechirdi.

O‘zbekiston Futbol assotsiatsiyasi huzuridagi Toshkent shahar futbol akademiyasi shu mahallada joylashgan. Zamonaviy majmua yopiq va ochiq sport maydonlari, nazariy mashg‘ulot xonalari, yotoqxona, oshxona va kutubxona mavjud. Hozir bu yerda 12 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan 154 nafar bola saboq olmoqda. Mashg‘ulotlarga chet ellik mutaxassislar ham jalb qilingan. Stadionlar yoritish va tasvirga olish qurilmalari bilan jihozlangan.

Prezident akademiya tarbiyalanuvchilari va sport sohasi mas’ullari bilan suhbatlashdi.

— Futbol bo‘yicha qarorlarimiz, iqtidorli bolalarga e’tibor berganimiz tufayli o‘zbek futbolini ham jahonga chiqa boshladi. Yevropa jamoalarida legionerlarimiz ko‘payapti. Yoshlarimiz Olimpiyada yo‘llanma oldi. Bu davomiy bo‘lishi uchun mahallalarda futbolni rivojlantirish kerak. Qo‘shimcha stadionlar qurib, ularning ommaviylikini qo‘llab-quvvatlash zarur, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu mahalladagi suv sporti saroyining ta’miri ham ko‘zdan kechirildi. Uni davlat-xususiy sheriklik asosida barqaror ishlatish bo‘yicha ko‘rsatma berildi.

Ziyodulla JONIBEKOV,  
Ikrom AVVALBOYEV,  
O‘ZA muxbirlari

## Türkiye gazetasi: “YANGI O‘ZBEKISTON BUTUN DUNYONING PORLOQ YULDUZIGA AYLANIB BORMOQDA”

«özbeKistan»  
ÖZBEKISTAN-TÜRKIYE  
ilişkileri daha da güçlenecek

Turkiyaning yetakchi “Türkiye” (“Turkiya”) gazetasiida “O‘zbekiston—Turkiya munosabatlari yanada mustahkamlanadi” sarlavhali maqola chop etildi.

Turkiya Buyuk millat majlisidagi O‘zbekiston bilan parlamentlararo do‘stlik guruhi raisi Osman Mesten qalamiga mansub mazkur maqolada ikki mamlakat o‘rtasidagi tarixiy rishtalar, savdo-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalarida yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar qayd etilgan.

Nashrda 6-iyun kuni qarodosh mamlakat — O‘zbekiston bilan munosabatlar jihatidan nihoyatda samarali va unumli kun bo‘lgani, ya’ni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rasmiy tashrif bilan kelgani xabar qilingan. Ta’kidlanganidek, tashrif davomida O‘zbekiston va Turkiya Prezidentlari raisligida oliy darajadagi Strategik sheriklik kengashining uchinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Davomi 2-beta



Futbal bo‘yicha Jahon chempionati:

MEZBON TASODIFIY TANLANMAYDI 6



## Milliy qonunchilik JST talablariga uyg‘unlashtirilyapti

Ish yoki kundalik turmush ehtiyojlari uchun biror mahsulot xarid qilar ekanmiz, ba’zida sotib olayotgan tovarimizning sifati, ayniqsa, narxini xorijniki bilan taqqoslaymiz. Nima uchun narxlar orasida farq mavjudligini o‘zimizcha muhokama qilamiz. Bular qaysidir ma’noda ichki bozorning jahon bozoriga chuqur integratsiya qilinmagani, ishlab chiqarish sanoatida kuchli raqobat muhiti shakllanmagani kabi jihatlar bilan bog‘liq. Boshqacha aytganda, muammoning bir uchi O‘zbekistonning shu kunlarda faol muhokama qilinayotgan Jahon savdo tashkilotiga a’zolikni tezlashtirish mavzusiga borib taqaladi.



Xo‘sh, JSTga a’zolik bilan iste’mol qobiliyatimiz o‘rtasida qanday bog‘liqlik bo‘lishi mumkin? Savolga Prezidentimizning 2024-yil 3-iyundagi “Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni va umuman, ayni yo‘nalishdagi

ishlar doirasida javob berishga harakat qilamiz.

Avvalo, JST qanday tashkilot ekani va unga a’zolik qanaqa afzalliklarga egaligiga qisqacha to‘xtalib o‘tish joiz.

Jahon savdo tashkiloti 1995-yili tashkil etilgan bo‘lsa-da, 1947-yilda tuzilgan xalqaro bitim — GATTning davomchisidir.

Davomi 3-beta





# Türkiye gazetasi:

## “YANGI O'ZBEKISTON BUTUN DUNYONING PORLOQ YULDUZIGA AYLANIB BORMOQDA”

### Boshlanishi 1-betda

“Bugungi O'zbekiston biz “ota yurt”, deb ta'riflaydigan Movarounnahr zaminidir. Milodiy X asrdan boshlab ajdodlarimiz bu yerlardan ko'chib, Anadoluni o'zlariga uchun vatan sifatida tanlagan. Shunday bo'lsa-da, ajdodlarimiz ota yurtda qolgan qardoshlarimiz bilan aloqalarini hech qachon uzmagani. Ushbu ulug' zamindan yetishib chiqqan buyuk allomalar nafaqat Osiyodagi, balki butun dunyodagi turki xalqlar tamadduniga katta hissa qo'shgan insonlardir”, deb yozadi muallif.

Maqolada yozilishicha, bugungi O'zbekiston zaminidan Turkiyaga kelganlar bu yerda katta madrasalar tashkil etib, muhim tadqiqot ishlarini olib borgan, yoshlarga

Ma'lum qilinganidek, keyingi yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti qariyb ikki barobar o'sdi. Mamlakat 2023-yilni 6 foizlik o'sish bilan yakunladi va bu yil ham xuddi shunday muvaffaqiyatga erishishi kutilmoqda. Inflyatsiya darajasi 9 foizga tushgan. Tovar ayirboshlash ko'rsatkichlari ham muttasil ortib bormoqda. Mamlakat valyuta bozori va oltin valyuta zaxiralari barqarorligini saqlab kelmoqda. Oxirgi yillarda 60 milliard dollardan ortiq xorijiy investitsiyani jalb etishga muvaffaq bo'ldi. O'tgan yili xorijiy investitsiyalar hajmi qariyb ikki barobar oshdi.

O'zbekiston 90 dan ortiq davlat, jumladan, Turkiyaga ham amal qilayotgan vizasiz rejim tufayli turizm sohasida o'z nomini yuksaltirmoqda. Shunday qilib, buyuk tarixiy poydevorlardan kuch olib,

keng ko'lami ishlar boshlab yuborilgan. O'zbekiston yoshlarining zamonaviy bilim va mutaxassisliklarni egallashi uchun ko'plab loyiha hamda dasturlar hayotga tatbiq etilmoqda. Jumladan, bugun o'zbek yoshlari o'z yurti va dunyoning eng nufuzli oliy o'quv yurtlarida tahsil olmoqda. Bu boradagi imkoniyatlar izchil kengaytirilmoqda”, deb ta'kidlagan Turkiya Buyuk millat majlisi a'zosi.

Maqolada O'zbekistonda boshlangan yangilanishlar jarayoni Turkiya bilan munosabatlarga ham chuqur ta'sir ko'rsatgani urg'ulangan. Muallif Prezidentlar Rejep Tayyip Erdog'an va Shavkat Mirziyoyev o'rtasida nihoyatda yaqin va samimiy munosabatlar o'rnatilganini e'tirof etgan. Davlat rahbarlarimiz bir-birlariga “qardoshim”, deb murojaat qiladi, deyiladi maqolada. Bu holat, albatta, mamlakatlarimizning barcha muassasa va tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

“Shu o'rinda mamlakatlarimiz parlamentlari o'rtasida ham namunaviy aloqalar mavjudligini alohida ta'kidlamasam bo'lmaydi, — deydi deputat. — Shu yil 22-may kuni Turkiya Buyuk millat majlisi raisi Numan Kurtulmush boshchiligidagi delegatsiya bilan O'zbekistonga tashrifimiz parlamentar diplomatiyani rivojlantirish nuqtayi nazaridan juda foydali bo'ldi. Delegatsiyamiz Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasi rahbariyati bilan muhim uchrashuvlar o'tkazildi. Ikki mamlakat parlamentlararo aloqalarini yanada rivojlantirish, parlamentlardagi do'stlik guruhlari ishini faollashtirish, tegishli ko'pmitalar o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha kelishib oldik”.

Maqola xulosasida, “Men Turkiya — O'zbekiston parlamentlararo do'stlik guruhi raisi sifatida faoliyat yuritir ekanman, bu zamanga ko'p marotaba borish imkoniga ega bo'ldim. Lekin har safar borganimda yangilanishlarni o'zim uchun kashf etaman. O'zbekiston tarixiy qadriyatlariga sobit qolgan holda jahon sivilizatsiyasiga hamon hissa qo'shmoqda. Men ham ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirish yo'lida bor bilim va g'ayratimni safarbar etishda davom etaman”, deb yozgan Osman Mesten.

“Dunyo” AA Anqara

### Kun mavzusi

## UCH DAVLATNI BOG'LOVCHI TEMIR YO'L BUTUN MINTAQA TARAQQIYOTIDA ALOHIDA AHAMIYATGA EGA

Mamlakatlar o'rtasidagi savdo aloqalari rivoji ko'p jihatdan transport va logistika sohasiga bog'liq. Asrlar davomida Sharq va G'arbni bog'lab turgan Buyuk ipak yo'li buning yaqqol misoli. Qariyb 10 ming kilometr ga cho'zilgan va bir qismi mamlakatimiz hududidan o'tgan mazkur karvon yo'li asrlar davomida savdo-sotiq ishlari rivojiga hissa qo'shgan. Bugun ana shu yo'lni tiklash, qit'alar o'rtasidagi savdo, iqtisodiy, madaniy, umuman, barcha yo'nalishlardagi aloqalarni yanada yaqinlashtirishga katta e'tibor qaratilyapti.

Bunda O'zbekiston faollik ko'rsatayotgani esa yanada diqqatga sazovor. Shu jihatdan joriy yilning 6-iyun kuni Pekin shahrida Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'li qurilishi bo'yicha strategik loyihani amalga oshirish to'g'risidagi bitimni imzolash marosimi o'tkazilishi uzoq kutilgan tarixiy voqealik bo'ldi. Davlatimiz rahbari tadbir ishtirokchilariga videomurojaat yo'lladi va ushbu muhim infratuzilma loyihasini amalga oshirish boshlanayotgani mintaqamizda iqtisodiy va transport jihatidan bog'liqlikni kuchaytirishga qaratilgan tarixiy voqea ekanini alohida ta'kidladi.

Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'li tarixiy Buyuk ipak yo'li bo'ylab Qoshg'ar — Torugart — Makmal — Jalolobod — Andijon yo'nalishlarida o'tadi. U orqali yuk tashishning yillik hajmi 15 million tonna gacha yetishi, tovarlarni yakuniy iste'molchilarga yetkazish muddati esa 7 kunga qisqarishi aytilmoqda. Asosiysi, yangi temir yo'li liniyasi Xitoyni mintaqamiz bilan bog'lovchi eng qisqa quruqlik yo'liga aylanaadi. Joriy yil poytaxtimizda o'tkazilgan uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi ochilishida ham davlatimiz rahbari mazkur transport yo'lagiga alohida ta'xtalib “Biz xorijiy sheriklarimiz bilan birgalikda Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston hamda O'zbekiston — Afg'oniston — Pokiston

temir yo'llarini qurish bo'yicha dastlabki ishlarni boshladik. Ushbu strategik loyihalarni mintaqadagi geoiktisodiy vaziyatni butunlay o'zgartirib, Markaziy Osiyoni Shimol va Janub, Sharq va G'arb bilan bog'laydigan global tranzit markaziga aylantiradi”, deya urg'ulagan bejiz emas.

Ma'lumotlarga ko'ra, megaloyiha qurilishi Qoshg'ar stansiyasidan boshlanadi. Ya'ni iqtisodiy va sanoat jihatidan rivojlanib borayotgan Qoshg'ar shahri yo'lining boshlanishi sifatida tanlab olingan. Loyihaning umumiy uzunligi 486 kilometrni tashkil etib, bundan qariyb 312 kilometr Qirg'iziston, 174 kilometr Xitoy hududidan o'tadi. Ushbu loyiha nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi. Kelgusida esa istiqbolli Transafg'on yo'lagi orqali Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq davlatlarining keng bozorlariga chiqish imkonini beradi.

— Mamlakatimizning geografik joylashuvi, rivojlangan sanoati va iqtisodiyotida temir yo'li transporti muhim ahamiyatga ega, — dedi ushbu loyihani amalga oshirish to'g'risidagi bitimni imzolash marosimida O'zbekiston transport vaziri Ilhom Mahkamov. — So'ngi yillarda bu yo'nalish katta rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Zamonaviy infratuzilmaga ega, aholi va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlariga mos yaxlit temir yo'li tizimi barpo etildi. Katta sa'y

harakatlar natijasida O'zbekiston zamonaviy transport kommunikatsiyalari va yuksak tranzit salohiyatiga ega bo'lgan davlatga aylandi. Pirovardida hududimiz Sharq va G'arb, Janub va Shimolni o'zaro bog'laydigan xalqaro temir yo'llarning markaziy qismi sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu keng ko'lami loyihani amalga oshirish uchun O'zbekiston hududida barcha zarur infratuzilma yaratilgan.

Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'lini qurish loyihasi ushbu harakatlarining muhim qismidir. Loyiha nafaqat uchta davlat, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi taraqqiyotiga kuchli sur'at bag'ishlaydi. U mintaqani Xitoy bilan bog'lovchi yagona temir yo'li tarmog'ini bo'lib, transmintaqaviy chegaralarning tarkibiy qismi sanaladi. Loyiha doirasida zamonaviy tranzit va logistika infratuzilmasi, omborxonalar va terminallar quriladi. Uning amalga oshirilishi natijasida vujudga keladigan iqtisodiy samara esa yangi korxonalar va o'n minglab ish o'rinlari yaratilishi, o'zaro savdo hajmi karrasiga ortishi, sanoat kooperatsiyasi kengayishi, investitsiyaviy jozibadorlik o'sishi va eng muhimi, aholi turmush darajasi oshishida namoyon bo'ladi.

Mazkur temir yo'li ikkinchi kontinental transport ko'prigining janubiy yo'lagini yaratish bilan birga uch mamlakat ishlab chiqaruvchilari uchun yangi bozorlarni ham ochib beradi. Kelgusida istiqbolli Transafg'on yo'lagi orqali Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq davlatlarining keng bozorlariga chiqish imkonini beradi, tranzit salohiyati va mintaqalararo o'zaro bog'liqlikni sezilarli darajada oshiradi. Qolaversa, Markaziy Osiyo mamlakatlari transport infratuzilmasini rivojlantirish bilan birga Fors ko'rfazi va Tinch okeani portlariga chiqishni yanada qulaylashtiradi.

Keyingi yillarda ushbu megaloyihani amalga oshirish harakatlari faollashtirish boisi shunda. Ayniqsa, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan oxirgi ikki yilda bu boradagi ishlar jadallashib, kelishuvlar yangi bosqichga chiqdi. Uzoq yillar davom etgan muzokaralardan so'ng, nihoyat, loyihaga start berildi va Pekin shahrida davlatlararo kelishuv imzolandi. Imzolangan bitim va qabul qilingan “yo'l xaritasi” doirasida bajaradigan ishlarimiz ko'p. Yaqin vaqt ichida ishchi guruh rejalarni ishlab chiqib, moliyalashtirish mexanizmlarini oxiriga yetkazadi. Shu yilning kuz oylarida ilk tamal toshi qo'yilib, qurilish ishlarini boshlash rejalashtirilgan.

Iroda TOSHMATOVA, “Yangi O'zbekiston” muxbiri



ilm o'rgatgan. Hozirgi kunda Anadoluda Samarqandiy, Toshkandiy va Buxoriy nomlari bilan bog'liq 2500 dan ortiq qabrlar bor. Ulardan ikkitasi Bursadagi Amir Sulton va Salohiddin Buxoriy qabrlaridir.

“2016-yilda Shavkat Mirziyoyev Prezident etib saylanganidan keyin O'zbekiston ochiqlik sari yuz tutdi va yangi taraqqiyot siyosatini amalga oshira boshladi. Mamlakatdagi o'zgarish va yangilanish jarayoni Yangi O'zbekiston nomining tez-tez tilga olinishiga sabab bo'ldi. Bu jarayonda Prezident Shavkat Mirziyoyev iqtisodiy taraqqiyotga alohida e'tibor qaratmoqda. Keyingi 7 yilda ushbu mamlakatga tez-tez tashrif buyurgan inson sifatida ayitshim kerakiki, Yangi O'zbekiston, haqiqatan, qisqa vaqtda katta yo'lni bosib o'tdi”, deb qayd etgan Turkiya parlamenti vakili.

yuksalish va rivojlanishni maqsad qilgan mamlakat nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyoning porloq yulduziga aylanib bormoqda.

Muallif, shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyevning ma'naviyat sohasidagi ulkan tashabbuslariga e'tibor qaratgan. “Bugungi kunda O'zbekistonda davlat rahbari tashabbusi bilan Uchinchi Renessans g'oyasi amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, ko'pchilik tarixchilar Imom Buxoriy, Xorazmiy kabi allomalar yetishib chiqqan X-XI asrlarni Birinchi Renessans davri, Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiy kabi allomalar yetishib chiqqan XV asrni Ikkinchi Renessans davri, deb ta'riflaydi. Bugun esa Yangi O'zbekiston yetakchisi Uchinchi Renessans g'oyasini ilgari surmoqda. Ushbu maqsadga erishish yo'lida mamlakatda

### Sharh

## MANFAATLAR TO'QNASHUVI JAMIYAT RIVOJINING TUSHOVI

Lutfulla SUVONOV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

Siz hakamsiz. Tanlov g'olibini aniqlash mutlaq chekingizga tushgan. O'sha tanlovda farzandingiz ham ishtirok etyapti. Sizingcha, kim g'olib bo'ladi? Agar o'rningizda men bo'lsam, bolamdan hech qaysi bir da'vogar o'zib keta olmasdi. Afsuski, bu illat jamiyatimizning uzoq yillik og'riqli nuqtalaridan biri bo'lib keldi. Ayniqsa, keyingi paytlarda tenderlarda g'olib bo'lgan yuridik tashkilot qaysidir hokim yoki shunga o'xshash vakolatli shaxslarga bevosita yoxud bilvosita aloqador ekaniga doir xabarlarini ko'p eshityapmiz.



sohada tadbirkorlik qilyapti. Buning nimasi yomon, desiz?

Davlat yuqori lavozimdagi odamning qo'lga sohani rivojlantirish, xususan, sohadagi mutaxassislarga yordam berish uchun imkoniyat, vakolat va mablag' beradi. U esa berilgan imkoniyatlardan foydalanib, qonunlarga mos ravishda ishlaydi, sohani rivojlantirishi kerak. Lekin u o'zi mas'ul soha rivojini emas, tadbirkorligini o'ylasa, bildirilgan ishonch, lavozimini suliiste'mol qilsa-chi?!

Tadbirkor bir so'mini ikki so'm qiladigan odam. Lekin bugun ko'rib turibmizki, davlat, jamiyat manfaatlaridan ko'ra o'z manfaatini o'ylaydigan rahbarlar bor.

Shuning uchun ham Prezidentimiz tomonidan imzolangan mazkur hujjat

Shunga ota go'ri qozixonami, deysiz, deysiz, bu — adolatsizlik. Katta ehtimol bilan shu kabi ishlardan qo'l silkiysiz.

Manfaatlar to'qnashuvining eng yomon tomoni — sog'lom raqobatni bo'g'uvchi oqibatlar yig'ilib, umumjamiyat darajasida ishonchni so'ndiradi.

Qarorga ko'ra, “Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi qonun bilan o'rnatilgan talab va mexanizmlarni davlat organlari va tashkilotlarida samarali joriy etish, bu

jarayonda xodimlarning huquq va manfaatlari himoyasini ta'minlash hamda ular uchun zarur tushuntiri sh ishlarini olib borish davlat organlari va tashkilotlarining birinchi rahbarlari zimmasiga yuklatiladi. Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran 6 oy o'tgach kuchga kiradi.

Shu o'rinda manfaatlar to'qnashuvi nima, degan savolga javob berishga harakat qilib ko'rsak. Manfaatlar to'qnashuvi — davlat tashkiloti xodimining, uning yaqin qarindoshlari va unga aloqador shaxslarning shaxsiy manfaatlari bilan fuqarolar, tashkilot yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelgan va kelayotgan yoxud yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat.

Jamiyatga katta zarar keltiradigan illatlardan biri aynan manfaatlar to'qnashuvidir. U bor joyda sohalar rivojlanish o'rni qo'zg'atib, davlat, mutaxassislar salohiyati ro'yog'ga chiqmaydi.

Deylik, bir odam biror sohada yuqori lavozimda ishlayapti. Shu bilan birga, o'sha

korruptsiyaning bir ko'rinishi bo'lgan manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va tartibga solishning huquqiy asosini ta'minlaydi. Qonun ijrosini tashkil etish ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tarkibi tasdiqlandi. Komissiya 2024-yil 1-iyulgacha qonun tatbiq etiladigan davlat organlari va tashkilotlarining aniq ro'yxatini shakllantiradi.

— Hujjat davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat muassasalari, davlat unitar korxonalarini, davlat maqsadli jamg'armalari, shuningdek, ustav fondida davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlariga nisbatan tatbiq etiladi, — deydi Adliya vazirligi mas'ul xodimi Temur Safarov. — Qonun kuchga kirganidan keyin har chorakda respublika idoralararo komissiyasining ishchi organlari tomonidan davlat organlari va tashkilotlari kesimida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holatlar tahlil qilinishi, bunday holatlar ko'paygan davlat organlari va tashkilotlariga kechiktirib bo'lmaydigan choralarini belgilash uchun tegishli taqdimnomalar kiritilishi belgilandi.

Shu bilan birga, har yarim yilda manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash va ularni bartaraf etish, bunday holatlarning oldini olish bo'yicha ko'rilayotgan choralar respublika idoralararo komissiyasi yig'ilishlarida tegishli davlat organlari va tashkilotlarining birinchi rahbarlari ishtirokida tanqidiy muhokama qilib boriladi.

Hujjatga davlat organi yoki boshqa tashkilotning xodimi, manfaatlar to'qnashuvi, manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha maxsus bo'linma, shaxsiy manfaatdorlik, yaqin qarindoshlar kabi asosiy tushunchalar kiritilgan. Endilikda davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining yaqin qarindoshlari, davlat organi yoki boshqa tashkilotning xodimi va uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsning ustav fondi aksiyalari yoki ulushlariga egalik qilsa, o'sha yuridik shaxs, ular qaysi yuridik shaxsda boshqaruv organining rahbari yoki a'zosi bo'lsa, o'sha yuridik shaxs davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga aloqador shaxslar, deb e'tirof etiladi.

Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi



manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi.

Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha choralarining yetariligin ta'minlash uchun har yili 1-martga qadar odo-axloq komissiyasiga taklif kiritadi. Odo-axloq komissiyasi tomonidan qabul qilingan xulosaga asosan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish yuzasidan choralar ko'rish to'g'risida davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining bevosita rahbariga yoxud davlat organi yoki boshqa tashkilotning yuqori turuvchi rahbariga taklif kiritadi.

Nomzod ishga qabul qilinayotganda yoxud davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimi boshqa ishga o'tkazilayotganda ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etganidan keyin maxsus bo'linma yuqorida nazarda tutilgan ishlarni 5 kunlik muddatda amalga oshiradi.

Bir so'z bilan aytganda, mazkur qonunning qabul qilinishi davlat tashkilotlarida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, aniqlash va tartibga solishning samarali mexanizmlarini joriy etish, uning huquqiy oqibatlarini aniq belgilash hamda mamlakatimizning korruptsiyaga oid xalqaro reytingdagi ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qiladi.



## Tahlil va taqqos

JAHON SAVDO TASHKILOTI  
TOMON YANA BIR MUHIM QADAM

## Milliy qonunchilik JST talablariga uyg'unlashtirilyapti

Avazbek XUDOYQULOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

“ Mamlakatimizning JSTga a'zo bo'lishga tayyorgarlik jarayoni 1994-yili boshlangan, biroq bu davrda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosat yuritilgani sababli mazkur jarayon 2005-yili muzlatib qo'yilgandi. Bu qaror o'sha davrda mavjud vaziyat, jumladan, milliy ishlab chiqaruvchilarimizning xalqaro raqobatga tayyorlik darajasi, ichki

sanoatni rivojlantirish zarurati kabi nuqtayi nazaridan to'g'ri bo'lgandir, ehtimol. Lekin bu vaqtinchalik chora edi. Chunki yuksak taraqqiyotni ko'zlagan har qanday davlat uchun JSTga a'zolik muhim mezon.

## Boshlanishi 1-betda

Uni umumiy qilib, dunyodagi eng yirik xalqaro iqtisodiy tashkilot, deyish mumkin. Aniqroq aytganda esa xalqaro savdoni liberallashtirish, tijoriy va siyosiy munosabatlarni tartibga solish bilan shug'ullanadigan hukumatlararo tuzilma. Buni tashkilotga a'zo davlatlar vazirlarining shu yil 26-29-fevral kunlari Abu-Dabida o'tkazilgan 13-uchrashuvidan so'ng tashkilot a'zolari soni 166 taga yetgani, dunyo savdosining 95 foizi ushbu mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelishi ham tasdiqlaydi. O'zbekiston tovar aylanmasining 97 foizi mazkur davlatlarning birgalikdagi ulushini tashkil etadi.

Qolaversa, JSTga a'zo bo'lish milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga ijobiy ta'sir qiladi. Jumladan, Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti ekspertlarining mazkur tashkilotga a'zo bo'lishi mamlakatlar iqtisodiyotiga qanday ta'sir etganiga doir tahlili ham fikrimizni tasdiqlaydi. Xususan, tashkilot 1990-yildan keyin a'zo bo'lgan 15 rivojlanayotgan mamlakat miqyosida o'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, 12 tasida eksport, 10 tasida YIM o'sishi tezlashgan, 12 tasida inflyatsiya sekinlashgan va 10 tasida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya hajmi oshgan.

Bulardan ko'rinadiki, xalqaro darajada olib qaraganda ham, mamlakatimiz manfaatli nuqtayi nazaridan yondashganda ham bu juda katta qamrov. Shunday emasi?

Shu o'rinda haqli savol tug'iladi: tashkilot qaysi jihati bilan aksariyat davlatlar va shunga mos umumiy savdoning asosiy qismini o'z atrofida jipslashtirib turibdi?

— Buni ikki asosiy jihat bilan izohlash mumkin: birinchisi — qulaylik, ikkinchisi — tenglik, — deydi iqtisodiyot fanlari doktori, professor Jasurbek Otaniyozov. — Xususan, JSTning asosiy maqsadlaridan biri proteksionizmga qarshi kurashishdir. Mazkur tashkilot xalqaro savdo munosabatlarida a'zo mamlakatlar uchun qulay huquqiy tizim taqdim etadi. Tashkilot a'zolari o'zaro kelishgan holda qabul qilgan hujjatlar mamlakatlar savdo siyosatini belgilagan mezonlar doirasida olib borishda mas'uliyat yuklaydi. Tashkilotda qarorlar ishtirokchi mamlakatlar yordamida konsensus — umumiy ovoz berish orqali qabul qilinadi.

JSTning vazifalari muayyan qoidalarga asoslangan tizim doirasida savdo jarayonini tartibga solishga yordam berish, hukumatlar o'rtasidagi savdo nizolarini xolisona hal qilish, savdo muzokaralarini tashkil etishdan iborat. Ushbu faoliyat JSTning 60 ta kelishuviga — xalqaro savdo va tijorat siyosatining asosiy huquqiy me'yorlariga asoslanadi. Ularga kamsitilmashlik, erkin savdo shartlari, raqobatni rag'batlantirish va sust rivojlangan mamlakatlar uchun qo'shimcha qoidalarga kiradi.

Demak, tashkilotga a'zolik jahon bozorida erkin, teng huquqli faoliyat yuritishga imkon beradi. Qolaversa, O'zbekiston kabi rivojlanish yo'lidagi mamlakatlarga imtiyozlar taqdim etilishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham bugun ko'p davlatlar tashkilotga a'zo bo'lish harakatida. Shu jumladan, O'zbekiston ham a'zolariga kirish yuzasidan muzokaralar olib bormoqda. Mamlakatimizning tashkilotga o'la huquqli a'zo sifatida kirishi xalqaro savdo tizimi va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Lekin JST a'zo mamlakatlardan ichki bozorni erkinlashtirishni qat'iy talab qiladi. Aksariyat davlatlarda ushbu vazifani uddalash oson kechmaydi. Chunki arzon va sifatli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi xorijiy korxonalar bilan raqobatlasha olmaydigan milliy korxonalar tanazzulga uchrashi mumkin. Shu bois, har bir mamlakatning JSTga a'zo bo'lish jarayoni o'rtacha 9-10, ayrim mamlakatlar uchun esa 12-15 yilni tashkil etadi. Tashkilotga a'zolik bilan bog'liq murakkabliklarni O'zbekiston tajribasi misolida ham ko'rish mumkin.

Xususan, mamlakatimizning JSTga a'zo bo'lishga tayyorgarlik jarayoni 1994-yili boshlangan, biroq bu davrda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosat yuritilgani sababli mazkur jarayon 2005-yili muzlatib qo'yilgandi. Bu qaror o'sha davrda mavjud vaziyat, jumladan, milliy ishlab chiqaruvchilarimizning xalqaro raqobatga tayyorlik darajasi, ichki sanoatni rivojlantirish zarurati kabi nuqtayi nazaridan to'g'ri bo'lgandir, ehtimol. Lekin bu vaqtinchalik chora edi. Chunki yuksak taraqqiyotni ko'zlagan har qanday davlat uchun JSTga a'zolik muhim mezon.

Shu bois, mamlakatimiz keyingi yillarda tashkilotga a'zo bo'lish harakatini boshladi. 2017-yildan boshlab ijobiy siljish kuzatilyapti. Bunga iqtisodiyotda davlatning roli va ishtirokini qisqartirish, iqtisodiyot tarmoqlari boshqaruvida bozor prinsiplari va mexanizmlarini keng joriy qilish, xususi tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish, ishlab chiqaruvchi muhitini yaxshilash va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish yo'lida qat'iy choralar ko'rilayotganini muhim jihat sifatida ko'rsatish mumkin.

Mamlakatimizda milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirish hamda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish borasida 2016-yildan keyin boshlangan faol islohotlar natijasida 2018-yil martdan O'zbekistonning JSTga a'zolikka kirish jarayoni kun tartibiga chiqdi. 2019-yil iyulida mamlakatimiz JST a'zolisiga kirish yuzasidan Tashqi savdo rejimi to'g'risidagi yangilangan memorandum va boshqa qator



hujjatlar, jumladan, tovar va xizmatlar bozoriga kirish bo'yicha ishlab chiqilgan dastlabki takliflarni taqdim etdi. "O'zbekistonning



JSTga kirishiga ko'maklashish" bo'yicha ishlab chiqilgan besh yillik loyihasini Yevropa Ittifoqi qo'llab-quvvatlamogda. Mazkur loyiha 2020-yil fevralida boshlangan. Unda mamlakatimizning JSTga qo'shilish jarayonida milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bo'yicha rivojlanish rejalari qo'llab-quvvatlashga asosiy e'tibor berilgan. Loyihani amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad



tashkilot belgilagan qoidalarga mos keladigan savdo muhitini yaratish orqali O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashish hamda xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvini kuchaytirishdan iborat.

Umuman olganda, JSTga a'zo bo'lish jarayoni uzluksiz va tizimli ishlashni talab etadi. Shu maqsadda O'zbekistonning JSTga

Shveysariyaning Jeneva shahrida ishchi guruhning 8-yig'ilishi o'tkazildi. Mamlakatimiz delegatsiyasi ishtirokida ishchi guruhning JSTga a'zo barcha davlat bilan kelishilgan hisoboti loyihasi elementlari muhokama qilingan yig'ilishda tashkilot kelishuvlariga milliy qonunchilikni muvofiqlashtirish bo'yicha islohotlar taqdim etildi. Shuningdek, ilk bor qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-



quvvatlash choralari ko'rib chiqish bo'yicha ko'p tomonlama muhokama o'tkazildi.

Tashkilotga a'zo bo'lish bilan bog'liq jarayon, ayni yo'nalishda qilinayotgan ishlar davlatimiz rahbarining doimiy e'tibori va nazoratida. Jumladan, Prezidentimiz shu hafta Jahon savdo tashkiloti bosh direktori, doktor Ngozi Okonjo-Iweala ni qabul qildi. Uchrashuvda mamlakatimizning JSTga qo'shilishi borasidagi amaliy chora-tadbirlar muhokama qilinarkan, qisqa muddatda mazkur jihatlar qo'shimcha ravishda a'zo mamlakatlar bilan faol muzokaralar olib borilayotgani, milliy qonunchilikni tashkilotning me'yor va qoidalarga muvofiqlashtirish ishlari davom ettirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Davlatimiz rahbari 2023-yil 19-sentabrda ham BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasi doirasida Ngozi Okonjo-Iweala bilan uchrashgandi. E'tibori jihat, har ikki uchrashuvda ham JST bosh direktori O'zbekistonning tashkilotga a'zo bo'lish borasidagi sa'y-harakatlarini yuqori baholab, bu yo'lidagi intilishimizni qo'llab-quvvatlashini bildirdi.

Gap JSTga a'zolik haqida borar ekan, avvalo, milliy qonunchilik va amaliyotni tashkilot qoidalarga uyg'unlashtirish, ko'p va ikki tomonlama muzokaralarni faollashtirish a'zolikning muhim shartlaridan biri ekanini ta'kidlash joiz. Bu borada Adliya vazirligi milliy qonunchilikni tashkilot bitimlariga uyg'unlashtirish yuzasidan nafaqat normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarni ekspertizadan

o'tkazmoqda, balki vazirlik tashabbusi bilan amaldagi qonunchilik hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Shu munosabat bilan "milliy rejim", ya'ni mahalliy hamda xorijiy ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida kamsitilmashni ta'minlash hamda milliy intellektual mulk tizimini xalqaro talablarga moslashtirish maqsadida 2024-yil 15-fevralda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi qonun qabul qilindi.

Qonunning qabul qilinishi milliy qonunchilikni JST bitimlari talablariga muvofiqlashtirish orqali O'zbekistonning tashkilotga a'zo bo'lish jarayoni jadallashishi hamda intellektual mulk obyektlari himoyasini ta'minlash, yurtimiz va xorijlik investorlarga bir xil shart-sharoit hamda teng raqobat muhiti yaratishga xizmat qiladi.

Ushbu qonun milliy qonunchilikni JST bitimlariga muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan va intellektual mulk, reklama, dori vositalari va farmatsevtika faoliyati hamda davlat bojiga oid qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutadi.

Jumladan, qonun qabul qilinguniga qadar davlat boji miqdori xorijiy investitsiyalarni ishtirokidagi korxonalarni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun bazaviy hisoblash miqdori (BHM)ning 10 barobari, mahalliy yuridik shaxslar uchun esa 1 barobari deb belgilangan edi.

Qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlar natijasida bu faoliyat uchun o'rnatilgan davlat boji birlashtirilgan holda BHMning 1 barobari miqdorida etib belgilandi. Bu bilan tegishli qonunchilik hujjatlarini JSTning Xizmatlar savdosi bo'yicha bosh bitimiga muvofiqlashtirildi. Natijada xorijiy investorlar va rezidentlar uchun teng imkoniyat hozirlanishi bilan bir qatorda, mamlakat iqtisodiyotiga kiritiladigan investitsiyalar ko'lamini kengaytirishga zamin yaratildi.

Bundan tashqari, qonunda milliy intellektual mulk tizimini JSTning Intellektual mulk huquqining savdo bilan bog'liq jihatlari to'g'risidagi bitimi, ya'ni TRIPS bitimi talablariga uyg'unlashtirish nazarda tutilgan. TRIPS bitimi JSTga a'zo davlatlar tomonidan intellektual mulkni huquqiy muhofaza va himoya qilish bo'yicha minimal talablarni belgilovchi bitimdir.

Oldin "Davlat boji to'g'risida" gi qonunda rezidentlar va nerezidentlar uchun belgilangan patent boji miqdori sezilarli darajada farq qilardi. Masalan, ixtirochi davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun talabnoma topshirganlik, rasmiy ekspertizadan o'tkazganlik va ma'lumotlarni e'lon qilganlik uchun rezidentlardan BHMning 1 barobari miqdorida bo' undirish belgilangan bo'lsa, xuddi shu harakatlar uchun nerezidentlar BHMning 17 barobari miqdorida patent boji to'lashi nazarda tutilgan edi.

Shunga ko'ra, mazkur qonun bilan kiritilgan

o'zgartirishlarga asosan patent boji to'lovchilar sifatida ko'rsatilgan rezident va nerezident mos ravishda jismoniy va yuridik shaxs deb o'zgartirilib, ular to'lashi zarur bo'lgan patent boji miqdori birlashtirildi.

O'z navbatida, davlat boji miqdorini kamaytirish orqali O'zbekistonda intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilishni rejalashtirgan jismoniy va yuridik shaxslarga qulay sharoit yaratiladi.

Keyingi yillarda O'zbekiston JST kelishuvlariga muvofiq 30 ta normativ hujjat qabul qildi. 14 davlat bilan ikki tomonlama muzokarani yakunladi. Bu jarayon, ayniqsa, oxirgi yillarda yanada faollashdi. Xususan, 2023-2024-yillarda milliy qonunchilikni ushbu tashkilot bitimlari, tartib-qoidalariga uyg'unlashtirish maqsadida 24 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilinib, 40 ga yaqin hujjat uyg'unlashtirildi.

Hozir ham bu boradagi ishlar tizimli davom ettirilmoqda. Xususan, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ko'zda tutilgan ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirish, shu jumladan, milliy iqtisodiyotning salohiyatini ro'yobga chiqarish, global ishlab chiqarish va qo'shilgan qiymat zanjiriga integratsiyasini yanada chuqurlashtirish, erkin bozor tamoyillarini amalda tatbiq etishni kengaytirish hamda O'zbekistonning JSTga a'zolisiga erishishni jadallashtirish maqsadida shu yil 3-iyunda davlatimiz rahbarining tegishli farmoni qabul qilindi.

Farmon bilan ishlab chiqarish, eksport-import jarayoni, davlat xaridlarini amalga oshirishda sog'lom raqobat muhitini ta'minlash maqsadida JST talablariga mos kelmaydigan, boshqacha aytganda, monopoliyani qo'llab-quvvatlash xarakteridagi qator huquqlar, imtiyoz va preferensiyalar, xususan, 2025-yil 1-yanvardan boshlab "O'zmetkombinat", "O'zikklimchiranglimetall", "O'ztrejd" AJlar va "O'zkimyoimpexs" MCHJga qonunchilik asosida taqdim etilgan maxsus huquqlar bekor qilinmoqda.

Xuddi shuningdek, 2026-yil 1-iyuldan boshlab "UzGasTrade" va "O'zenergosotish" AJlar ekskluziv huquqdan mahrum etilmogda. Bu qanday huquqlar va ularni bekor qilish nimaning anglatadi? Bular sog'lom raqobat tamoyillariga zid, ammo muayyan zarurat yuzasidan berilgan huquqlardir. Masalan, "UzGasTrade" AJning tabiiy gazni yagona eksport qiluvchi va import orqali tashqi manbalardan markazlashgan tartibda xarid qilish bo'yicha yagona operator sifatidagi bekor bo'layotgan huquqini o'ylaylik. Bu ushbu yo'nalishda barcha uchun teng sharoit yaratilishiga zid huquqdir. Shu kabi huquqlarning bekor qilinishi mazkur yo'nalishda sog'lom raqobat muhiti yaratilishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Hujjatga muvofiq, 2026-yil 1-yanvardan boshlab birja savdolarida sotib olingan mis katodi va mis katankasini eksport qilishga doir cheklovlar bekor qilinmoqda. 2024-yil 1-oktabrdan 2025-yil 1-aprelgacha mamlakat hududida temir yo'l transportida yuk tashishda taqdim etilayotgan chegirmalar berish amaliyotini bekor qilish hamda temir yo'l orqali yuklarni tashishda eksport va import tashish xizmatlari uchun tariflarni 2030-yilgacha bosqichma-bosqich birlashtirishni nazarda tutuvchi qaror loyihasi ishlab chiqilishi belgilanyapti.

Bundan tashqari, 2026-yil 1-iyuldan boshlab "Davlat xaridlari to'g'risida" gi qonun bilan tartibga solinadigan korporativ buyurtmachilar amalga oshiradigan xaridlarda mahalliy ishlab chiqaruvchilarga taqdim etilgan imtiyoz va preferensiyalar, shu jumladan, mahalliy ishlab chiqarilgan elektrotexnika va elektr maishiy mahsulotlarga nisbatan 20 foizgacha narx preferensiyasi bekor qilinmoqda.

Milliy qonunchilikni JSTning Subsidiyalar va kompensatsiya choralarini to'g'risidagi bitimi (ASCM)ga muvofiqlashtirish uchun 2024-yil 1-oktabrga qadar eksportni qo'llab-quvvatlash maqsadida taqdim etilayotgan subsidiya va preferensiyalar, shu jumladan, mahsulotni eksportga realizatsiya qilishdan olingan daromad bo'yicha foyda solig'i, aylanmadan olinadigan soliq, transport xarajatini qisman qoplab berishga oid imtiyozlarni 2025-yil 1-yanvardan bekor qilish, shuningdek, JST qoidalari bilan taqiqlanmagan qo'llab-quvvatlov choralarini ko'rish vazifasi qo'yilmoqda.

Farmondan kelib chiqadigan yangilanishlar, umuman, milliy qonunchilikni JST bitimlari talablariga muvofiqlashtirish borasidagi ishlar O'zbekistonning tashkilotga a'zo bo'lish jarayoni yanada jadallashishini ta'minlaydi.



Islohotlar amalda

# AVLODLAR UCHRASHUVI

## yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi



Oybek SULTONOV, Bosh prokuraturaning kadrlar boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, adliya kichik maslahatchisi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

**"Qari bilganni pari bilmas", deydi. Buni teran anglagan xalqimiz qadimdan ota-bobolarning hayot yo'li, o'tgan kunlaridan chiqargan xulosasi, o'g'itini qadrlaydi va nuronilarning pand-u nasihatiga xulosa qilib tutadi.**

Yoshi ulug'larga hurmat-ehrom ko'rsatish, ijtimoiy himoya qilish, turmush sharoitini yanada yaxshilash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan. Ana shu e'tibor tubayli keksa avlod vakillari bugun yangi O'zbekistondagi islohotlarning faol ishtirokchisiga aylandi. Ular tafakkurimizni yangilash va rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlarini mustahkamlashda jonbozlik ko'rsatmoqda, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida ishtirok etmoqda. Ayniqsa, mahallalardagi ma'naviy muhitni yaxshilash, yoshlarni ezu ishlarga undashda nuronilarning boy hayoti tajribasi muhim. Shu maqsadda hududlarda, ta'lim muassasalarida keksa va o'rta avlod vakillari hamda yoshlar ishtirokida uch avlod uchrashuvlari o'tkazilmoqda.

faxriysi ishtirokida uch avlod uchrashuvi tashkil etildi. Faxriy mehmonlar viloyatdagi ijtimoiy-madaniy, ma'muriy, turistik va sanoat-qurilish obyektlarida bo'ldi.

Uch avlod uchrashuvlarini o'tkazishdan asosiy maqsad mamlakatimiz taraqqiyoti yo'lida o'ziga xos maktab yaratgan fidoyilar hamda mehnat faxriylarining hayot yo'li va faoliyatini yoshlarga namuna qilib ko'rsatish, yigit-qizlarni ustoz-shogird qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash, marrani baland olishga o'rgatishdir. — deydi 3-darajali davlat adliya maslahatchisi Qobiljon Qirg'izaliyev. — Jizzax viloyatiga safarimiz chog'ida ko'zlangan maqsadga astoydil kirishib, uchrashuvlarda yoshlar bilan ko'proq suhbatlashishga

Prokuratura organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasida tizimda uzoq yillar samarali mehnat qilgan faxriylar va yosh mutaxassislar o'rtasida uch avlod uchrashuvlarini o'tkazib borish orqali tizimda matonatli, halol, kasbiga sadoqatli va yuqori mas'uliyatli kadrlar korpusini shakllantirish belgilangan.

Yangicha ushbu tizimni keng joriy etish uchun Jizzax viloyatida O'zbekiston prokuratura organlari faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash jamoatchilik markazi va Bosh prokuraturaning oliy darajali unvonga ega 11

e'tibor qaratdik. Bu bilan ularni bugungi kun ruhida tarbiyalash, ustoz-shogird an'analari tiklash, jamiyatda o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, bunyodkorlik yutuqlaridan shukronalik tuyg'usini oshirish, vatanparvarlikni kuchaytirish uchun hissa qo'shдик, degan umiddamiz.

Tadbir qatnashchilari dastlab Jizzax shahridagi Bobo yakka ziyoratgohida bo'ldi. U yerda duoyi fotha o'qilgach, davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov haykali poyiga gul qo'yildi. Marosimda viloyat prokuraturasi organlarida xizmat qilayotgan 60 nafar tezkor xodim, harbiy orkestr va yoshlar ishtirok etdi. Bunday marosim Hamid Olimjon va Zulfiya haykali poyida ham tashkil etildi. Sharof Rashidov hamda Hamid Olimjon va Zulfiya muzeylaridagi tarixiy eksponatlar faxriy ustozlarga tanishtirildi.

Mehmonlar davlat arbobi tahsil olgan

**Kunning ikkinchi yarmida faxriy ustozlar, viloyat prokuraturasi organlari xodimlari, shu jumladan, yosh mutaxassislar va ota-onalar ishtirokida viloyat prokuraturasida "Ustoz-shogird" an'analari asosida uchrashuv o'tkazildi. Tadbirda malaka kengashi qarori bilan ish o'rganish dasturini muvaffaqiyatli bajargan 27 nafar yosh mutaxassis tantanal qasamyod qildi.**

markazida kitobxonlar bilan qizg'in suhbat tashkil etildi, kutubxonaga badiiy kitoblar sovg'a qilindi.

Qozon federal universiteti Jizzax filialida tashkil qilingan uchrashuvda yoshlar bilan bir safda xorijiy mamlakatlardan kelgan professor-o'qituvchilar ham ishtirok etdi.

Kunning ikkinchi yarmida faxriy ustozlar, viloyat prokuraturasi organlari xodimlari, shu jumladan, yosh mutaxassislar va ota-onalar

mamlakatimizda qonuniyligni mustahkamlash, inson huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish borasida tizimli ishlar qilinayapti, — deydi 2-darajali davlat adliya maslahatchisi Usmon Xudoyqulov. — Har qanday ko'rinishdagi qonun buzilishiga qarshi murossasiz kurashadigan, qonun talablariga qat'iy bo'ysunadigan, kasbiga sadoqatli va halol xodimlar korpusini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada davlatimiz rahbarining manzilli ko'rsatmasi asosida prokuratura organlari xodimlari, ayniqsa, yosh mutaxassislar ma'naviyati va intellektual salohiyatini oshirish, ularda zarur kasbiy ko'nikma va fazilatlarini shakllantirish, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga to'sqinlik qilayotgan tizimli muammolarni aniqlash va zararsizlantirishga bor kuch-g'ayratimizni yo'naltirmoqdamiz.

Mehmonlar shahar markazidagi 3-sonli ichki ishlar bo'limi va "Kimyogor" mahalla fuqarolar yig'indidagi "yettilik" faoliyati bilan yaqindan tanishib, zarur tavsiyalar berdi.

Hududlarimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, har bir mahallani obod qilish, aholi turmushini yaxshilash va "mahallabay" ishlashda yangi "yettilik" tizimi faoliyatini samarali yo'lga qo'yish muhim, — deydi 3-darajali davlat adliya maslahatchisi Ulug'bek Inomjonov. — Bugungi tadbir doirasida mahallalarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlantirish, shuningdek, aholi bandligini ta'minlash va turmushini yanada yaxshilash bo'yicha davlatimiz rahbari bergan vazifalar ijrosi bilan yaqindan tanishdik. Viloyatda sektor rahbarlarining o'zaro hamkorligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular mazkur vazifalarning o'z vaqtida va samarali bajarilishi ustidan ta'sirchan nazoratni yo'lga qo'ygan, joylarda nazorat-tahlil tadbirlari olib borayotgan, albatta, hududlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Ikkinchi kuni mehmonlar prokuratura organlarida xizmatini o'tash paytida vafot etgan xodimlarning oila a'zolari bilan uchrashuvda vatanparvarlik, matonat, kasbiga sadoqat va yuqori mas'uliyat hissini oshirish borasida faxriylar maslahat va takliflarini berdi. Shundan so'ng "ADM JIZZAX" avtomobil ishlab chiqarish zavodi va "Oqtosh ota" mahalla fuqarolar yig'ini hududida barpo etilayotgan



Jizzax shahridagi 10-maktabda bo'lib, "Sharof Rashidov — iste'dodli shoir, yozuvchi, adabiyot va san'at homiysi" mavzusida adabiyot olimpiadasi doirasida o'tkazilgan "Insholar tanlovi" g'oliblarini tantanal taqdirlash marosimida ishtirok etdi. Shuningdek, 110 ming kitob fondiga ega viloyat axborot-kutubxona

ishtirokida viloyat prokuraturasida "Ustoz-shogird" an'analari asosida uchrashuv o'tkazildi. Tadbirda malaka kengashi qarori bilan ish o'rganish dasturini muvaffaqiyatli bajargan 27 nafar yosh mutaxassis tantanal qasamyod qildi.

Yoshlar ijrosida Vatan va ustozlarga bag'ishlangan she'rlar o'qildi, kuy-qo'shiqlar yangradi. Tadbirda qatnashgan faxriy ustozlar o'z faoliyati va amaliyotdagi boy tajribasi haqida gapirib berdi.

Barchaning qalbida vatanparvarlik, inson qadri ulug'lanayotgan bugungi kunga shukronalik tuyg'usi jo'sh urdi. Ustozlar tajribasi, xizmat faoliyati bilan bog'liq o'g'itil yosh xodimlar uchun chinakam saboq vazifasini o'tadi.

Faxriylar viloyat prokuraturasidagi tarix muzeyi va ma'naviyat burchagi bilan tanishdi. — Prokuratura organlari tomonidan

Yangi O'zbekiston massividagi keng ko'lami qurilish-bunyodkorlik ishlari bilan tanishildi.

— Sharof Rashidov tumanidagi Oqtosh ota mahallasi hududida qad rostlayotgan massivning kelajak loyihasi bizda zo'r taassurot qoldirdi, — dedi 2-darajali davlat adliya maslahatchisi Tohir Mirzayev. — Ayniqsa, bunyodkorlik jarayoni, aholiga yaratiladigan sharoit, zamonaviy imkoniyatlar va qulay yashash tarziga xos rejarlar massiv loyihasidan asosiy o'rinni egallagan. Bundan tashqari, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 3 ta "Prokuror bog'i" barpo etilib, 31 ming tupdan ortiq ko'chat ekilgan. Tuman va shaharlar obodonlashtirilmoqda, aholi sharoiti kun sayin yaxshilanmoqda. Bu chora-tadbirlarning hammasi xalqimizning farovon yashashi uchun qaratilgan.

Kunning ikkinchi yarmida viloyat prokuraturasi organlarida xizmat o'tayotgan xodimlar, yosh mutaxassislar, sektor rahbarlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faxriylari, nuronilarni, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida bir piyola choy ustida uch avlod uchrashuvi o'tkazildi. Yuqori sayiya va ko'tarinki ruhda tashkil etilgan tadbirda ustozlar hayoti tajribasi bilan o'rtoqlashdi.

Jizzax viloyatida aholining 54 foizi yoshlar, — deydi 3-darajali davlat adliya maslahatchisi Botir Kalonov. — Shu bois, yoshlar ta'lim-tarbiyasi va ishtirokida alohida e'tibor qaratilayotir. Viloyatda umumta'lim maktablaridan tashqari 1 ta Prezident maktabi, 13 ta ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi faoliyat yuritmoqda. OTMlar soni 5 ta, ularda 37 ming 355 talaba tahsil olinmoqda. Ularning 57 nafari xorijlik. So'nggi ikki yilda OTMlarning 16 talabasi xalqaro olimpiadalarda muvaffaqiyat qozongan bo'lsa, 46 nafari nomdor stipendiya sohibi. Viloyatda 93 ta maktab va maktabgacha ta'lim tashkiloti, 27 ta sog'liqni saqlash, 12 ta sport obyekti hamda 8 ta ko'priklar qurilib, foydalanilgacha topshirilgan.

Uchinchi kuni tadbirlar Zomin tumanida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida "Prokurorlar bog'i"ga manzarali ko'chatlar ekish bilan davom etdi. So'ng Zomin ekoturistik maskaniga sayohat uyushtirilib, kanat yo'li va osma oynali ko'priklar borildi.

Jizzax ahli, ayniqsa, yoshlar Bosh prokuraturaning oliy darajadagi unvonga ega, el-yurt hurmatiga sazovor, mamlakat taraqqiyotiga hissa qo'shgan faxriylari tashrifidan mamnun bo'ldi, — deydi viloyat hokimi Ergash Soliyev. — Tashrifdagi muloqot, yoshlarning oliy darajadagi unvonga ega shaxslar bilan yuzma-yuz uchrashuvi, prokuratura faxriylarining xizmat kiyimiga havas qilishi, jarayonda esdalik uchun fotosuratga tushishga intilishi hammani alohida to'liqlantirdi. Bu kabi tadbirlarni muntazam o'tkazish, unga o'rta va yosh avlod vakillarini ko'proq jalb qilish orqali farzandlarimizni Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariга sadoqat va fidoyilik ruhida tarbiyalash, yurt ravnaqiga daxldorlik tuyg'usini mustahkamlash aholining keng qamrovli bunyodkorlik va yaratuvchilik jarayonidagi ishtirokini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega deb o'ylayman.

Ha, Jizzax viloyatida o'tkazilgan uch avlod uchrashuvlari ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy jihatlar bilan ishtirokchilarda yorug' taassurot qoldirdi. Ayniqsa, yoshlar nigohidagi shijoat yo'lqini faxriylar ko'ngliga ko'chib, davrga hamnafaslik, mamlakat ijtimoiy, ma'naviy hayotida faol qatnashishini kuchaytirdi.

Tadqiqotlarimizga ko'ra, ayrim hududlarda havo harorati 45-50 gradusgacha ko'tarilganida, quyosh panellarining foydali ish ko'effitsiyenti pasayib ketishi kuzatildi, — deydi "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish instituti" milliy tadqiqot universiteti katta ilmiy xodimi Tohir Majidov. — Shuning uchun quyosh panellarining orqa tomoniga suv bilan sovutish tizimi o'rnatiladi. Bu quyosh panellarida harorat 25-27 gradusdan oshib ketmasligi va foydali ish ko'effitsiyenti 1,5 barobar ko'tarilishini ta'minlaydi.

Hozirgi vaqtda barcha quyosh panellari tizimlari, xususan, tomchilatib sug'orish texnologiyalari uchun quyosh panellari bir joyga o'rnatiladi. Birinchidan, ko'chmas qilib o'rnatilgan quyosh panellari energiyasidan faqatgina sug'orish davrida foydalaniladi. Ikkinchidan, ishlamay turgan quyosh panellarining ba'zi qismlari vaqt o'tib ishga yaroqsiz bo'lib qoladi. Ushbu loyihadagi bular inobatga olingan.

Bugungi kunda mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi qariyb 10 foizni tashkil etmoqda. O'zbekistonda 2030-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvati 27 gigavattga yetkazilib, elektr energiyasi ishlab chiqarish umumiy hajmini kamida 40 foizga olib chiqish maqsad qilingan. Bu har yili 25 milliard kub metr tabiiy gazni tejash, atmosferaga zararli tashlanmalarni 34 million tonna qisqartirishi imkonini beradi.

**Minajatdin QUTLIMURATOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri**

### Bugunning gapi

# ELEKTR ENERGIYASI ORTIDAN DAROMAD

## TOPAYOTGANLAR SAFI KENGAYMOQDA



**Taxiatoshlik Botir Bekjonov odamlar o'z uyida elektr energiyasi ishlab chiqarishi, ortganini davlatga sotishi mumkinligi xususidagi gaplarni eshitgach, bunga astoydil qiziqib qoldi. Izladi, so'radi, surishtirdi. Oxiri shu ish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar, bank vakillari bilan maslahatlashib, uyining tomiga quyosh panellarini tumanda birinchilardan bo'lib o'rnatdi. Shu ishni to'g'ri qilganidan bugun mamnun.**

Xonadonimiz sal kattaroq. Elektr energiyasi ko'p ishlatiladi. Shu ham sabab bo'lib, quyosh panellari o'rnatish harakatiga tushgandim, — deydi Nurli kelajak mahallasining Boyterak ko'chasida yashovchi Botir Bekjonov. — Bugun ishlab chiqarilayotgan 20 kVt/soat elektr energiyasining 8 kVt/soatini o'zimiz ishlatib, ortganini davlatga 1000 so'mdan sotaymiz. Bundan oilamiz oyiga 300 ming so'm daromad qilyapti.

Quyoshli O'zbekiston muqobil energiya ishlab chiqarishda katta imkoniyatga ega. Albatta, quyosh panellari arzon emas. Buning uchun kredit ajratilsa-da, ushbu texnologiya juda ommalashib ketayotgani yo'q. Ammo dastlabki xarajat elektr tokini sotish ortidan sekin-asta qoplanib, keyin daromadga o'tilishini ham unumtaslik kerak.

Bu kabi ishlarni jadallashtirishda esa Prezidentimizning 2023-yil 16-fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalar qo'l kelmog'ida. Unda

ijtimoiy va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohalarida hamda iqtisodiyot tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, energiya samaradorligini oshirish orqali respublika hududlarida energiya taqchilligi qoplanishini ta'minlash yuzasidan respublika bo'yicha manzilli ro'yxat va rejarlar belgilangan.

Unga ko'ra, Orolbo'yida 1227 ta ijtimoiy soha obyekti va davlat idorasida 12,3 megavatt quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari o'rnatish hisobiga 9,6 million kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarish rejalashtirilgandi, — deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi bosh mutaxassisi Muzaffar Qalnarov. — Bundan tashqari, 1754 tadbirkorning bino va inshootlarida 14,1 megavattlik, aholi xonadonlarida 7,4 megavattlik quyosh panellari o'rnatilishi belgilangandi. Buning uchun tijorat banklari 68 milliard 53 million so'm kredit ajratdi. Shuning 33 milliard 861 million so'mi tadbirkorlik subyektlariga, 34 milliard 192 million so'mi aholiga berildi. Natijada 2362 kishi o'z uyiga 4,30 megavattlik qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari o'rnatib oldi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari o'rnatgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan har oyda yagona elektr energetika tizimi orqali uzatilgan va iste'mol qilingan elektr energiyasi hajmining hisobi "Hududiy elektr tarmoqlari" korxonasining billing tizimida yuritilib, oy yakuni bilan tarmoqqa uzatilgan va iste'mol qilingan elektr energiyasi o'zaro hisob-kitob qilinayapti.

**Quyosh panellarini ishlab chiqarish korxonasi ishga tushdi**

O'zbekistonda quyosh panellarini ishlab chiqarish loyihasi birinchilardan bo'lib Qoraqalpog'istonda ro'yog'ga chiqarildi. Nukus shahridagi "Nukus elektroapparat" qo'shma korxonasi yiliga 150 megavatt quvvatli quyosh panellari ishlab chiqarish bo'yicha yangi loyihani ishga tushirdi. Bugungi kunda 30 dan ortiq odam mehnat qilayotgan korxonada to'liq quvvatda faoliyat boshlashi bilan 150 ga yaqin doimiy ish o'rni yaratiladi. Korxonaning yangi yo'nalish bo'yicha ish boshlashi uchun uskunalar Xitoydan olib kelingan. Ishlab chiqarish Janubiy Koreya texnologiyasiga asoslangan.

Jami 10,5 million AQSH dollari miqdorida investitsiya evaziga ish boshlagandik, — deydi korxonada direktori o'rinbosari Jasurbek Jabborov. — Ishlab chiqarayotgan quyosh panellarimizga 30 yillik kafolat beramiz. Shu bilan birga, yaqin vaqt ichida Nukus shahrida elektromobillarni quvvatlantiruvchi qurilmalarni ham o'rnatib, aholiga sifatli xizmat ko'rsatishni rejalashtirib turibmiz.

**Oftobdan unumli foydalanilmoqda**

O'zbekistonning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan Qoraqalpog'iston va Xorazm sanoatini va qishloq xo'jaligini rivojlantirish, yetarli elektr energiyasi bilan ta'minlash maqsadida 1956-yili Amudaryoning janubiy qirg'og'ida Taxiatosh elektr stansiyasi qurilishi boshlangan edi. 1961-yilning sentabr oyida quvvati 14 megavatt bo'lgan birinchi turbogenerator ishga tushirildi, 2021-yilda esa har birining quvvati 280 megavattlik 1- va 2-bug'gaz qurilmalari foydalanishga topshirildi. Hozirgi paytda korxonada ishlab chiqariladigan elektr energiyasi Qoraqalpog'iston, Xorazm va Navoiyga yetkazib berilmoqda.

Stansiyamizning joriy yil birinchi choragida elektr energiyasi ishlab chiqarish rejasi 1 milliard 540 million kVt/soat bo'lgan bo'lsa, amalda 1 milliard 866,5 million kVt/soat natijaga erishildi, — deydi direktor o'rinbosari Alpomish Bekjonov. — Bu bir kecha-kunduzda o'rtaacha 14 million kVt/soat elektr energiyasi, degani.

Shu bilan birga, stansiyaning bo'sh umydonlari va binolari tom qismiga umumiy quvvati 1500 kilovattlik quyosh

panellari o'rnatilgan bo'lib, natijada ichki ehtiyoj uchun sarflanadigan energiya tejab qolinmoqda.

### Ko'chma kichik stansiya

25 gektar mevali bog'larimiz bor. Shuning 8 gektariga Jahon banking mablag'lari hisobidan tomchilatib sug'orish texnologiyasi qo'yilgan, — deydi "Ozod intensiv bog'" fermer xo'jaligi rahbari Ozod Masharipov. — Uning ishlab chiqarish bo'yicha quyosh elektr stansiyasi qurilgan. U 4 kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Undan yil davomida foydalanish mumkin. Ya'ni bahar va yoz faslida sug'orish uchun ishlatiladi, kuz va qishda boshqa maqsadlarda foydalanamiz. Bir yilda ushbu quyosh elektr stansiyasi fermer xo'jaligimizning elektr energiyasi uchun to'laydigan 27 million so'mdan ko'proq mablag'ini tejaydi.

Mazkur kichik stansiya o'ziga xos. Umumiy quvvati 4-5 kVt/soat bo'lgan sakkiz dona quyosh paneli, inverter, akkumulyator, kontrolyor va boshqa qismlardan iborat.







## Yuksalish pallasasi

universitetlari orasidan o'rin oldi. Bu yil QS agentligi tomonidan 106 davlatdan jami 5663 ta universitet tahlil qilinib, 1503 tasi reytingga kiritilgan.

Keyingi ikki yilda universitetda keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Bu yerda faoliyat yuritayotgan pedagog-xodimlarning 52 nafari PhD va 13 nafari DSc himoya qildi, ilmiy salohiyat 18 foiz oshdi.

— Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini yo'lga qo'yish maqsadida universitetda xorijiy kompaniya va mahalliy ish beruvchi tashkilotlar homiyligida 16 ta maxsus auditoriya tashkil etildi va zaruriy

sifati va tadqiqot samaradorligini oshirish orqali 2030-yilda dunyo universitetlari orasida TOP-300 talik qatorda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga erishish, universitetning 2 ilmiy jurnali "Scopus", "ScienceDirect", "Web of Science" va boshqa xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasida indeksatsiya qilish ko'zda tutilmoqda.

Universitetda ilg'or tadqiqotlar qilish yuzasidan ham salmoqli ishlar bajarilishi kutilyapti. Transformatsiya sharoitida yangi ta'lim joriy etiladi, oliy ta'lim tizimida "meta olam" (Meta Universe) texnologiyasini yaratish va joriy etish, kvant texnologiyalarni rivojlantirish, masofaviy texnologiyalarni

# IKKI-NUFUZLI OLIYGOHIMIZ XALQARO REYTINGDA KUCHLI 1000 TALIKDAN JOY OLDI

**"O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalari oldiga qator aniq vazifalar qo'yilgan. Jumladan, dunyoning eng nufuzli TOP-1000 oliy ta'lim tashkilotlari reytingiga kiritish vazifasi ko'zda tutilgan.**

texnik va laboratoriya vositalari bilan jihozlandi, — deydi "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti" milliy tadqiqot universiteti rektori Bahodir Mirzayev. — 2022-2023-yillarda Islom taraqqiyot banki tomonidan 149 nomdagi 338 ta laboratoriya jihozi, universitet mablag'i hisobidan laboratoriya, orgtexnika va sohalar bo'yicha dasturiy ta'minot mahsulotlari bilan o'quv jarayoni to'liq ta'minlandi. Ta'lim, ilmiy tadqiqot hamda salohiyatni rivojlantirish yo'nalishlaridagi xalqaro loyiha va grantlar soni 29 tani tashkil etadi. Joriy yilda 8 taga oshirildi. Xalqaro hamkorlik faoliyati asosida jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmini 19 foiz oshirishga erishildi.

2024-yilda Germaniyaning ASIIN xalqaro akkreditatsiya agentligi tomonidan universitetning 9 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisliklari Yevropa ta'lim standartlari va malaka kvalifikatsiyasi talablari asosida xalqaro akkreditatsiyadan muvaffaqiyatli o'tdi.

Bundan tashqari, universitetda 2022/2023-o'quv yilidan boshlab barcha magistratura mutaxassisliklarining o'quv jarayoni to'liq ingliz tilida olib borilishi yo'lga qo'yildi.

O'quv-tajriba xo'jaligida tomchilatib, yomg'irlatib, diskret va tuproq osti yopiq quvurlar yordamida sug'orish texnologiyalari joriy etilgan. G'alla, paxta, sholi va dukkalki ekinlar urug'lariga sovuq plazma bilan ishlov berish texnologiyasi qo'llanilmoqda.

Bugungi kunda raqobat nihoyatda kuchli, zamon shiddat bilan rivojlanmoqda. Mehnat bozorida universitetlarning o'z o'rnini va mavqegini saqlab qolishi oson bo'lmaydi. Bugun universitet salohiyatidan to'liq foydalana olgani yo'q, juda katta rezerv va resurslarga ega. Shunga mos ravishda muassasaning yaqin va uzoq muddatlarga mo'ljallangan strategik rivojlanish dasturi mavjud. Unga ko'ra, universitet ta'lim



faol qo'llash va elektron ta'lim usullarini yaratish belgilangan. Bu, albatta, dunyoning nufuzli reytinglarida yanada yuqori o'rinlarga ko'tarilishga xizmat qiladi.

## Yetakchi oliy ta'lim muassasasi sifatida tanilish vaqt talab etadi

Mazkur ro'yxatda O'ZMU "xorijiy o'qituvchilar ulushi" bo'yicha Markaziy Osiyoda ikkinchi o'rin, dunyo universitetlari orasida 197-o'rinni egalladi. Shuningdek, "akademik obro'" ko'rsatkichi bo'yicha 347-o'rin, "ish beruvchilar obro'si" bo'yicha 540-o'rin, "bitiruvchilar muvaffaqiyati" indikatorlari bo'yicha 559-o'rinni qayd etdi.



Sohalardagi ijobiy dinamika o'qitish sifati va O'zbekiston oliy o'quv yurtlari obro'sining yanada o'sishiga mustahkam zamin yaratadi.

— Universitetimiz zaminida o'nlab ilmiy-madaniy markazlar, oliy ta'lim muassasalari tashkil topgan bo'lib, Fanlar akademiyasining 100 dan ortiq akademigi, 2000 dan ortiq fan doktori, professor hamda ko'plab fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) va dotsent yetishib chiqqan, — deydi O'ZMU rektori Inom Madjidov. — Universitet besh yil avval dunyoning TOP-1000 universitetlari qatoridan joy olish bo'yicha strategiyasini belgiladi. O'tgan davr ichida ilmiy maqolalar chop etilish, jurnallarda iqtiboslik natijalari, umuman, dunyo olimlari orasida tanilish hamda xorijiy talabalar universitet o'quv jarayoniga jalb qilinishi kabi katta miqdodagi amaliy ishlar bugun samarasini berdi. Dunyo arenasida yetakchi oliy ta'lim muassasasi sifatida tanilish bir kun yoki bir yilda bo'ladigan jarayon emas, albatta. Bu uchun yillar, puxta o'ylangan reja va cheksiz mehnat talab etiladi.

Yurtimizda oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, sohani xalqaro miqyosga olib chiqish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim maskanlari moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Buning mahsuli o'laroq, dunyo e'tirof etgan 1000 talik oliygothlar qatorida mamlakatimizdagi ikki universitetning qayd etilishi bu borada yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishdagi katta qadam bo'ldi.

**Risolat MADIYEVA,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Joriy yil 5-iyun kuni Buyuk Britaniyaning nufuzli "QS Quacquarelli Symonds" xalqaro reyting agentligi dunyodagi eng yaxshi universitetlar reytingini e'lon qildi. Unda bu yil ilk bor mamlakatimizdan ikkita oliy ta'lim muassasasi — O'zbekiston Milliy universiteti va "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti" milliy tadqiqot universiteti TOP-1000 dan joy oldi.

## Natijaga erishish oson bo'lmadi

Bugun "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti" milliy tadqiqot universiteti o'z oldiga muhim va yuksak marralarni qo'yib, yaqin istiqbolda dunyo reytinglariga kirishga da'vogarlik qilayotgan hamda o'zini global arenada "ixtisoslashgan oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar markazi" sifatida ko'rayotgan universitetdir.

Keyingi yillarda ta'limga qaratilgan e'tibor bugun erishilgan yuksak natijada muhim omil sanaladi. 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Unga

ko'ra, respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasi xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytingida TOP-1000 talik va 2 ta OTMni 500 talikka kiritish belgilangan.

Shu bois, universitet va uning ko'p sonli professor-o'qituvchilar, tadqiqotchi-olimlar, xodimlar va talabalardan iborat jamoasi zimmasiga ulkan vazifalar qo'yilgan. Jumladan, universitet oliy ta'lim sifatini yuksaltirish, fan va innovatsiyalarni rivojlantirish yo'lida izchil harakat qilishni o'zining muhim vazifasi deb hisoblaydi.

QS xalqaro reyting agentligi tomonidan oliygothga 4 yulduzli universitet maqomi berildi. Ko'rsatkichi 689 ball bo'ldi, 5 yulduzli universitet maqomiga 11 ball yetmadi. Bu yil, albatta, eng yuqori marraga erishish maqsad qilingan.

O'tgan yili 5-dekabr kuni London shahrida QS xalqaro reyting agentligi tomonidan 2024-yilda barqaror rivojlanish sohasida dunyodagi eng yaxshi universitetlar reytingi — QS World University Rankings: Sustainability 2024 ning yangi ro'yxati e'lon qilindi. TIQXMMI (701-710) ilk bor eng kuchli oliygothlar qatorida qayd etildi.

Nihoyat uzoq yillar qilingan mehnat kutilgan natijani berdi, ya'ni O'zbekiston oliygothlari orasida ilk bor QS World University Rankings, ya'ni dunyo reytingida mazkur milliy tadqiqot universiteti 22,6 ball bilan 547-o'rinda e'tirof etildi. Bu natija bilan joriy yilda ushbu reytingda ilk marotaba qayd etilgan (new entrant) dunyo

## Ta'lim taraqqiyoti

# KADRLAR SALOHİYATLI BO'LISHI KERAK

## Oldimizga qo'yilgan asosiy vazifa shu

**Bugun chet tillarni bilish hayotiy zaruratga aylandi. Qanday bo'lmasin, kelgusida umumta'lim hamda kasb-hunar maktablarini bitirayotgan o'quvchilar kamida bitta xorijiy tilni o'rganib ketishi kerak. Bu esa malakali xorijiy til o'qituvchilariga ehtiyojni oshiradi. Ayni maqsad yo'lida faoliyat boshlagan Andijon davlat chet tillar instituti ikki yoshga to'ldi.**

Joriy etildi. Barcha o'quv dasturlarimiz AQSH, Buyuk Britaniya, Turkiya va Rossiyadagi hamkor oliygothlar bilan birgalikda jahon ta'lim standartlari hamda kadrlar buyurtmachilari talablari asosida butunlay yangidan tuzildi.

O'tgan davr mobaynida 72 nafar professor-o'qituvchi yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalariga malaka oshirish va stajirovkaga yuborildi. Xorijiy hamkorlar professor-o'qituvchilarining mahorat darajasi ta'lim sifatini oshirishda katta yordam bermoqda. Shuningdek, ularning o'quv-uslubiy hamda ilmiy faoliyatini rag'batlantirish tizimi sababli ta'lim sifati keskin o'sdi. Masalan, joriy o'quv yilida professor-o'qituvchilarimizning barchasi S1 darajadagi milliy va xalqaro til bilish sertifikatiga ega bo'ldi.

Bugun oliy ta'lim muassasalarida nufuzli xorij oliygothlari bilan hamkorlikka katta e'tibor qaratilyapti. Bu, ayniqsa, chet tillar oliygothlari hayotida muhim o'rin tutadi. Hozirgacha Singapurning Amity xalqaro universiteti, Buyuk Britaniyaning Kembrij hamda Portsmut universitetlari, AQSHning Ohayo universiteti, Buyuk Britaniyaning Norvich instituti, Janubiy Koreyaning Cheju Halla hamda King Sejong universitetlari, Moskvada davlat universiteti, O'sh davlat universiteti, Turkiyaning Kanfas, G'ozni va Hoji Bayram universitetlari hamda



Hindistonning Milliy turizm va mehmondo'stlik menejmenti institutlari bilan o'z uchasini rivojlantirish bo'yicha hamkorlik o'rnatdik. Shuningdek, ETC xalqaro tashkiloti, Buyuk Britaniya hamda AQSH konsulliklari, AQSH elchixonasi, Fransiya, Germaniya elchixonalari ham hamkorlarimizga aylandi.

Kelgusi o'quv yilidan Amity, Cheju Halla, G'ozni universitetlari bilan amaliy ingliz tili, turizm va mehmondo'stlik ta'lim yo'nalishlarida qo'shma ta'lim dasturi joriy etiladi. Cheju Halla universitetiga 14, Amity universitetiga 10 talaba akademik almashinuv dasturi asosida o'qishga yuboriladi. Bundan tashqari, "Yozgi maktab" dasturi doirasida 100 nafar xorijlik talabani jalb qilish rejalashtirilgan.

Yaqinda O'zbekistonning "Dunyoning ishlari" qissasi ingliz tiliga tarjima qilinib, "Amazon"da sotuvga qo'yildi, Nyu-York metrosida mazkur kitobning reklama suratlari tarqaldi. Kitobning birinchi tarjimoni Abdullo

Ro'ziyev bizning bitiruvchimiz. Bu kabi talabalarimizning o'z ustida ishlashi va ulkan yutuqlarga erishishida institut axborot-resurs markazi muhim o'rin tutadi. Shu bois, institut kutubxonasini boyitishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, til ta'limi beruvchi nufuzli ilmiy markazlar va ta'lim muassasalari nashriyotlari tomonidan chop etilgan 18 nomdagi 284 ta xorij darsligi sotib olinib, institut kutubxonasiga topshirildi. Kutubxonaning elektron o'quv zalida AQSHning Ohayo hamda Buyuk Britaniyaning Norvich universiteti kutubxonasidan ochiq foydalanish imkoniyati yaratildi. Endi talabalar bemalol ushbu nufuzli universitetlar kutubxonalaridan onlayn shaklda foydalanishi mumkin.

Zamonaviy oliy ta'limda har bir talabaga individual yondashuv taqozo etiladi. Kimlardir alohida iqtidorini ko'rsatgisi keladi. Talaba yoshlarni qiziqishlariga qarab kasb-hunarga o'rgatish, qo'shimcha daromad olishini

yo'lga qo'yish maqsadida institut talabalar shaharchasida pazandalik, tikuvchilik, mebelsozlik uchun sharoitlar yaratilgan. Pazanda qizlarimiz tayyorlayotgan turli pishiriqlar, salatalar institut hududidagi ovqatlanish shoxboshchalariga tarqatildi. Tikuvchi qizlar ham alohida jihozlangan xonada o'zlarini va tengdoshlari ehtiyoji uchun kiyimlar tikadi.

Institutning 1120 o'rinni talabalar turar joyi mavjud. Ular holidan doimiy xabardor bo'lish, yashash sharoiti bilan yaqindan tanishish maqsadida "Talaba bilan bir kun" loyihasi birinchi bo'lib institutimizda yo'lga qo'yilgan. Loyihaga ko'ra, institut rahbariyati, professor-o'qituvchilar talabalar turar joyiga borib, turli to'garaklarda, ko'ngilochar tadbirlarda ishtirok etadi, yotoqxonada tunaydi. Bu tashabbus tizimidagi boshqa oliygothlarda ham ommalashganidan xursandmiz. Loyiha institut rahbariyati va talabalar o'rtasida sog'lom ijtimoiy muhitni yuzaga keltirish, mavjud muammolarni o'z vaqtida aniqlab, bartaraf etishda katta samara bermoqda.

"Besh muhim tashabbus" markazida 13 nafar iqtidorli, faol talaba jamoatchilik asosida faoliyat yuritilmoqda. Markazda 18 ta ijodiy to'garak, 7 ta klub ham mavjud. O'nlab yirik loyihalarni amalga oshirilib, ularga 2000 dan ortiq talaba qamrab olindi.

"Zakovat" klubidan tashqari "LinguaQuiz" loyihasida rahbar va ishchi xodimlarimiz, professor-o'qituvchilarimiz, talaba yoshlardan iborat jamoalar haftaning seshanba kunlari o'z bellaroshib turadi.

Xonobod shahridagi 3,5 gektarli turizm o'quv-laboratoriyamizda talabalar uchun qishki va yozgi o'quv oromdahlari tashkil qilingan. O'tgan yozda 100 nafar talaba u yerda o'z bilimlarini oshirgan bo'lsa, bu yil ular sonini 200 ga yetkazish ko'zda tutilgan. Zero, bu yerda yoshlar sohasining yetuk mutaxassislari seminar-treninglarida ishtirok etib, o'z loyihalarini yaratib qatnaydi. Eng yaxshi deb topilgan loyihalarni institut tomonidan moliyalashtiriladi. Jumladan, o'tgan mavsumda Lizzatillo Pahlavonbekov tomonidan ilgari surilgan "BookQuiz" loyihasi ma'qul topilib, moliyalashtirildi.

Institut bugun nafaqat ta'lim maskani, balki ilmiy tadqiqotlar gurkib rivojlanayotgan fan markaziga ham aylandi. O'tgan yili tayanch doktorantura va doktorantura uchun o'rinlar ajratilgan bo'lib, hozir 51 doktorant, stajyor-tadqiqotchi va mustaqil izlanuvchilar tadqiqot ishi bilan shug'ullanyapti. Bu oliygothimiz ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qilyapti. Ilmiy salohiyatimiz bugunga kelib, 40,7 foizga

yetdi. Yil oxirigacha bu ko'rsatkichni 45 foizga yetkazishni maqsad qilganmiz.

2022-2024-yillar mobaynida 36 ta, xususan, xalqaro reyting agentliklarining TOP-1000 talik ro'yxatiga kiritilgan universitetda bitta dissertatsiya himoyasi o'tkazildi, xorijdan ilmiy darajaga ega 8 pedagog taklif qilindi. Institut professor-o'qituvchilaridan 3 nafari Janubiy Koreya, 1 nafari AQSH, 3 nafari Rossiyaning nufuzli xorijiy oliy va ilmiy ta'lim muassasalari faxriy professori va akademiya muxbiri a'zolariga saylangani olimlarimiz xalqaro miqyosda ham tan olinayotganidan dalolat.

2 ta ilmiy laboratoriya, 5 ta tadqiqot markazi, 14 ta ilmiy to'garak, 1 ta tahriyat tashkil etilib, bugungi kunda ularga 745 iqtidorli talaba, 50 tadqiqotchi va 150 professor-o'qituvchi jalb qilindi. Yetakchi ustozlar, olimlarimiz tomonidan 21 ta darslik, 79 ta o'quv qo'llanma, 10 ta uslubiy qo'llanma va 11 lug'at chop etildi.

Iqtidorli talaba yoshlarni saralash, ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatga yo'naltirish hamda ilmiy-ijodiy g'oyalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida respublika OTMLari orasida birinchi bo'lib "Respublika Yoshlar akademiyasi forumi"ning kuzgi hamda bahorgi bosqichlarini tashkil etdik. Bu orqali 600 dan ortiq iqtidor egasi, jumladan, 120 dan ziyod xorijiy talabani birlashtirishga hamda 100 dan ortiq "Startup" va akselerator g'oya ishlab chiqishga erishildi. Kelgusida forumni an'anaviy dasturga aylantirib, ishtirokchilari sonini 1000 nafarga yetkazamiz.

Bu kabi tadbirlar qisqa vaqt ichida o'z mahsulini bera boshladi. Ilmiy faoliyatni samaradorligi natijasida bugungi kungacha 18 talaba nufuzli tanlovlarda g'oliblikka erishdi. Ular Prezident stipendiyasi, Islom Karimov va Navoiy nomidagi davlat stipendiyalari sovrindorlari, 1 nafari "Mirzo Ulug'bek vorislari" tanlovining respublika bosqichi g'olibi, 10 nafari vazirlik huzuridagi "Yoshlar akademiyasi" bosh assambleyasi a'zolariga qabul qilindi. Bitiruvchilarimizning 62 foizi yuqori darajadagi milliy va xalqaro til bilish sertifikatlarini qo'lga kiritgani ham mehnatimiz besmas emasligini ko'rsatyapti.

Umuman olganda, bir oiladек ahil jamoamiz bilan institutni rivojlantirish bo'yicha besh yillik dastur va istiqbolli jarajalarimiz amalga oshirishga astoydil harakat qilyapmiz. Institutimizni ikki yilda meva bera boshlagan daraxtga qiyoslaganlarimiz eshitib, ko'nglimiz to'g'dek ko'tarildi. Shunday ekan, yagona maqsadimiz — raqobatbardosh, yetuk kadrlar tayyorlab, bildirilgan ishonchni oqlash.

## Dilshod RUSTAMOV, filologiya fanlari doktori, professor

Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, biz ham, avvalo, xalqaro va mintaqaviy reytinglarga kirish, kelgusida TOP darajaga yetish, jahon mehnat bozorida bellasha oladigan kadrlar tayyorlash borasida sof raqobatga kirishdik. Institutda ingliz, fransuz, nemis va rus tillaridan tashqari xitoy, koreys, arab va yapon tillari bo'yicha ham kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'ydik.

2023-2024-o'quv yilida 5 ta magistratura, 16 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha talabalar qabul qilindi. To'liq kredit-modul tizimi asosida ta'lim beryapmiz. O'quv jarayoni ham to'la raqamlashtirilib, HEMIS platformasi



Sport — tinchlik elchisi



Futzal bo'yicha Jahon chempionati:

MEZBON TASODIFIY TANLANMAYDI

Jismoniy mashqlar va sog'lom turmush tarzi ehtiyoji odam avlodlari bilan hamisha birga yashab kelgan. Sport musobaqalari tarixi ham uzoq o'tmishga borib taqaladi. "Sport — tinchlik elchisi" degan gap zamirida esa juda katta hayotiy haqiqatlar bo'y ko'rsatadi. Bu haqiqat bugungi tahlikali, davlatlararo munosabatlarda o'zaro ishonchsizlik kayfiyati hukm surayotgan bir sharoitda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi.



qatnashib, shohsupaning yuqori pog'onalarini hech ikkilanmasdan zabt etib, Olimpiada litsenziyasini qo'lga kiritayotgan sportchilarning haqida deyarli har kuni kayfiyatni ko'taradigan xabarlar quloqqa chalinmoqda. Bundan tashqari, futzal bo'yicha Jahon chempionati bahslariga ham oz fursat qolmoqda.

Bu haqda 2023-yilda FIFA mutaxassislari va O'FA rahbariyati ishtirokida o'tkazilgan matbuot anjumanida ishtirok etgan FIFA musobaqalar o'tkazish bo'limi boshlig'i Haime Yarza Gonzalez bunday degandi:

— 2024-yilgi Jahon chempionati mezboni etib O'zbekiston variantida to'xtadik. Chunki yurtingiz ko'plab musobaqalarni ajoyib ravishda o'tkazadi. Barchamiz buning guvohi bo'ldik. O'zbekistonning xalqaro turirlarni o'tkazish tajribasiga tayanib, ushbu sport turini yurtingizda yanada ommalashtirish yuzasidan bu qarorga keldik.

Bugun nufuzli turirga yurtimizda jiddiy hozirlik davom etmoqda. Jumladan, musobaqa o'tkazilishi belgilangan joylarda kerakli imkoniyatlar, sportchilar hamda muxlislar uchun qulayliklar yaratilmoqda. Eng asosiysi, Jahon chempionatini chiroyli tashkil etish hamda vakillarni yuqori o'rinda ko'rishga e'tibor qaratilgan.

Prezidentimizning joriy yil 28-maydagi "2024-yilgi futzal bo'yicha Jahon chempionatiga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Qarorga ko'ra, Andijon, Buxoro hamda Toshkent shaharlarida 2024-yil 14-sentabr — 6-oktabr kunlari bo'lib o'tadigan chempionatga munosib tayyorgarlik ko'rish, yuqori darajada tashkil etish va o'tkazish belgilandi.

Mazkur hujjatga asosan, nufuzli musobaqaga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita tarkibi, chora-tadbirlar rejasini hamda Jahon chempionatining bosh sovrini — jahon kubogini ommaga tanishtirish uchun respublika bo'yab "Trophy Experience" yo'nalishi marshrut ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, Jahon chempionati o'yinlarini tomosha qiluvchi muxlislariga ham qator imtiyozlar berilishi aytilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, futzal bo'yicha Jahon chempionatining ilk musobaqasi 1989-yil Niderlandiyada bo'lib o'tgan va unda Braziliya terma jamoasi g'olib bo'lgan. Amaldagi chempion Portugaliya bo'lib, jamoa 2021-yilgi turnir finalida Argentinani mag'lub etgan. Hozirga qadar 4 jamoa dunialda zafar qochgan — Braziliya (5 marta), Ispaniya (2 marta), Argentina (1 marta) va Portugaliya (1 marta). Mezbon terma jamoalar orasida faqatgina Braziliya turnirda g'olib bo'lishning uddasidan chiqqan. Turnir tarixidagi eng yaxshi to'purar braziliyalik Falkao bo'lib, u 33 uchrashuvda 48 bor raqiblar darvozasini ishg'ol qilgan.

Joriy yil 26-may kuni futbol bo'yicha Jahon chempionatining guruh bosqichiga qur'a tashlandi. Ko'hna Samarqand shahridagi Registron maydonida tashkil etilgan qur'a marosimi muxlislar kuzatuv ostida o'tdi. Marosimda FIFA, O'zbekiston Sport vazirligi, Milliy Olimpiya qo'mitasi, mamlakatimiz futbol assotsiatsiyasi rahbariyati ishtirok etdi.

Qur'a natijalariga ko'ra, O'zbekiston terma jamoasi "A" guruhda Paragvay, Kosta-Rika va Niderlandiya bilan bahslashadigan bo'ldi. Jahon chempionatining ochilish o'yini shu yilning 14-sentabr kuni O'zbekiston va Niderlandiya jamoalari o'rtasida kechadi. Bahsga Toshkent shahridagi "Humo arena" mezbonlik qiladi.

Bu galgi turnir FIFA tomonidan 10-bor tashkil etilmoqda. Final bosqichida jami 24 jamoa g'oliblik uchun kurashadi.

Maqolamiz avvalida sportning tinchlik elchisi sifatidagi mohiyati haqida aytgan edik. Bu gap zamiridagi xulosa ham g'oyat qadri. Futzal bo'yicha Jahon chempionatiga mezbonlik qiladigan mamlakatimiz bugun tinchlikparvar, bag'renglik va o'zaro ishonch ruhida rivojlanish yo'lidan sobit bormoqda. Yurtimizdagi barqaror taraqqiyot, mehmondo'stlik an'analari dunyo xalqlari e'tiborida bo'lib turibdi. Oldimzdagi kuz faslining ilk kunlaridan diyorimizga butun dunyodan kela boshlaydigan minglab futbol ishqibozlari hali bu jihatlariga o'zlari amin bo'lishiga shubha yo'q.

championati O'zbekistonda o'tkazilishi ham islohotlar va yangilanishlar shukuhining navbatdagi yorqin ifodasi, deyishga to'la haqlimiz.

Ikkinchi mezon. Sport infratuzilmasi va xorijlik mehmonlarga yaratilgan qulay sharoitlar. Kasbimiz taqozosi bilan chekka-chekka qishloqlarda, mahallalarda bo'lamiz, odamlar bilan muloqot qilamiz, ularning muammolarini eshitamiz, hayotdan rozilik kayfiyatini bilishga qiziqamiz.

Shunday subhatlar chog'ida oddiy odamlarning bir quvonchi e'tiborimizga tushadi. "Aval mahallamizga, uyimizga mehmon kelsa, uyalaridik. Ko'chalar yozda chang, yog'ingarchilik vaqtida loy bo'lib yotardi. Oyog'imiz loydan chiqmasdi, mehmon kelsa, loy oralab kutib olib, shu loy bilan kuzatardik. Endi o'zimiz mehmon chaqirib, maqtanib, ko'nglimiz xotirjam yashayapmiz", deydi qishloq odamlari.

Mana shunday keng ko'lamli o'zgarishlar quvonchini mamlakatimizda sport infratuzilmasi yaxshilangani misolida ham talqin qilish mumkin.

Ha, bo'sh vaqt ham topiladi. Lekin bugun dam olish kunlari uyda yotadigan odamni kam uchratasiz. Kimdir toza havoda sayr qilishga oshno, kimdir tabiat qo'yniga oshiqadi. Hech bo'lmasa, mahallamizdagi sport sayilgohlarida vaqt o'tkazamiz. Ertalabmi yo kechqurun biror mashg'ulot bilan bandmiz. Bu jismoniy mashqlar va sog'lom turmush tarzi uchun mahallada yaratilgan sharoitlar samarasidir. Shu tariqa mamlakatda yagona quvvatlanish hodisasi kuzatila boshladi — sport ruhi bilan oshnoqlik kayfiyati uyg'ondi.

Bir qarashda o'zimizga sezilmaydigan,

To'g'ri, bir necha bor mundial sari urinishlar samarasiz bo'lgani bor gap. Shunday paytlarda xafa bo'ldik, chunki xalqimiz o'z milliy qahramonlarini doimo g'olib ko'rgisi keladi, ularni futbol zavqi, g'alaba nashidasi tark etmaydi.

Bugun xalqimiz orzulari ro'yobini ko'rmoqda. Ishonch bilan gapirish mumkin, agar Jahon chempionatiga tizimli, bosqichma-bosqich rivojlanish yo'li orqali va mustahkam poydevor qurgan tarzda chiqib boradigan bo'lsak, birgina chiqish bilan to'xtab qolmaymiz. Aksincha, bu muntazam yangi-yangi darajaga yetakladik.

Sohadagi islohotlar samarasida dastlab bolalar futbol rivojiga katta e'tibor qaratilgan tahsinga loyiq. Natijada keyingi yillarda tarbiyali murabbiylar qo'l ostida tarbiyalangan iqtidorli yoshlar asta-sekin katta maydonga kirib kelib, o'z mahorati bilan natija ko'rsata boshladi. Bu esa professional jamoalarimiz faoliyati ham tubdan o'zgarib borishiga zamin yaratdi. Terma jamoalarga futbolchi yetishtirish mexanizmi bosqichma-bosqich yo'lga qo'yildi. Futbolchilarni seleksiya qilish ishlari professional darajaga olib chiqildi.

Imkoniyatlar kengayib, mutaxassislar oldidagi talab ham ortib bordi. O'FA rahbariyati oldiga milliy terma jamoamiz va boshqa termalarga kuchli raqiblar topish vazifasi qo'yildi. Shu kunga qadar Osiyo, Yevropa, Afrika, Janubiy va Shimoliy Amerika mamlakatlarining ko'zga ko'ringan jamoalari O'zbekiston terma jamoalariga raqiblik qilmoqda.

Bugun O'zbekiston xalqaro musobaqalar o'tkazish bo'yicha Osiyo markazlaridan biriga aylandi, deb bemalol aytishimiz mumkin. Qit'aminizning turli yosh toifalaridagi rasmiy musobaqalari, Osiyo chempionatlari, saralash o'yinlari va Markaziy Osiyo mintaqasining o'nlab turnirlariga mezbonlik qilindi. OFK tomonidan O'FAGA bildirilayotgan ishonch

malakasini oshirish, muxlislariga unutilmas futbol bayramini taqdim etishda katta natijalarga erishildi. Ayniqsa, U23 hamda U20 Osiyo kubogi musobaqalari yurtimiz sportida katta voqeaga aylandi. Bu orqali O'FAning nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlari yangi bosqichga chiqdi. FIFA, OFK va UEFA bilan qator loyihalar muntazam ravishda amalga oshirilishi yo'lga qo'yildi.

O'tgan yili mamlakatimiz yana bir yirik turnir — 20 yoshgacha bo'lgan futbolchilar o'rtasidagi Osiyo kubogiga mezbonlik qildi. Puxta tayyorgarlik ko'rilgan chempionatning esda qolari jihati, yoshlarimiz barcha raqiblarini mag'lub etib, faxrli birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Musobaqaning yakuniy — final uchrashuvida terma jamoamizni qo'llab-quvvatlash uchun davlatimiz rahbarining muntazam tashrif buyurishi mamlakatimiz futbol tarixidan joy oldi.

Hozir yosh futbolchilarning xalqaro o'yinlardagi faol ishtiroki tufayli o'ziga ishonchi tobora ortib bormoqda. Kechagina futbolchilarning yaqin kelajakda Olimpiya o'yinlarida ishtirok etishi faqatgina taxmin qilinayotgandi. Ba'zilar bunga ishonib-ishonmay turgani ham bor gap edi. Bugun esa bu amalga oshish arafasida.

Yaqinda futbol bo'yicha 23 yoshgacha bo'lgan mamlakatimiz terma jamoasi Osiyo kubogi bahslarida chiroyli g'alabalar bilan tarixda ilk bor Olimpiya o'yinlari yo'llanmasini qo'lga kiritganining guvohi bo'ldik. Yurtimiz futbol tarixida yangi sahifalar ochilishi barchani mamnun etgani ham ro'st. Televizor orqali bo'lsa-da, barcha uchrashuvlarni kuzatib borgan millionlab yurtdoshlarimiz vakillarimizning har bir yutug'idan quvondi. Har bir g'alabasini qutlab, quvonchiga sherik, dalda bo'lib bordi.

Albatta, sportdagi erishilayotgan yutuqlar bu bilan to'xtab qolgan yo'q. Xususan, ayni



Yaqin-yaqingacha sport obyektlari bir ahvolda edi. Bugun xalqaro standartlarga mos inshootlar qurishning ham hadisini oldik. Pirovardida O'zbekiston turli sport musobaqalarini o'tkazish qobiliyati va imkoniyatiga ega bo'ldi.

Shu o'rinda savol tug'ilishi mumkin: bu sport musobaqalaridan bizga nima naf?

Nafi ko'p. Birinchidan, zamonaviy sport inshootlari, eng avvalo, bizning farzandlarimiz uchun xizmat qiladi. Ikkinchidan, xalqaro sport musobaqalari o'tkazilishi turizmni rivojlantirishda eng faol vosita hisoblanadi. Uchinchidan, turizm rivojlanishi tadbirkorlik muhitiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni yangi xizmat turlari paydo bo'ladi, shu orqali ish o'rinlari yaratiladi. Bu esa xalqimiz uchun mo'may daromad manbayiga aylanadi. Yana bir jihat esa sport musobaqalarining yuqori saviyada o'tkazilishi mamlakatning xalqaro miqyosdagi imijini ko'taradi.

Demak, futzal bo'yicha Jahon chempionatining yurtimizda o'tkazilishidan hammamiz manfaatdor ekanimiz ayonlashadi.

Uchinchi mezon. Mamlakatdagi sport ruhi. Keyingi yillarda vaqt tez o'tayotgandek tuyula boshladi. Buni hamkasblar, yon-atrofimizdagi bilan o'zaro subhatlar chog'ida ham ko'p aytamiz. Nega shunday?

Chunki bugun shunchaki bekorchilik bilan vaqt o'tkazayotgan kishi deyarli yo'q. Hamma biror ish bilan andarmon. Mamlakatda ishchanlik va uyg'qlik, serg'ayratililik, g'oyaviylik muhiti yaratildi.

ko'nikib qolgan bu ko'tarinkilik kayfiyati, aslida, alohida e'tirofga molik manzaradir. Mamlakatda sport ruhi shakllanishi, o'z navbatida, chet mamlakatlarimiz sport ekspertlari e'tiborini tortmay qo'ymaydi. Mantiqan olib qaraganda ham sportga e'tibor sust, xalq mehmondo'st bo'lmagan mamlakatda Jahon chempionati — intiq kutilgan sport bayramini o'tkazishga ro'yxushlik berilmaydi.

XALQIMIZ O'Z QAHRAMONLARINI G'OLIB KO'RISHNI XOHLAYDI

Endigi gapimiz mamlakatimizda futbolning qanday rivojlanayotgani haqida bo'ladi. O'zbekiston sportsevari xalqi va sport jadal rivojlanayotgan mamlakat sifatida ham tanilmoqda.

Bu jarayonda o'zbek futbolining yutuqlari tahsinga loyiq. Darhaqiqat, bugun o'zbek futbol kundan kunga rivojlanib, dunyo arenalari sari odimlamoqda. Mamlakatimizda zamon talablariga javob bera oladigan darajadagi bir qancha stadionlar barpo etildi va etilmoqda. Qator xalqaro uchrashuvlar tashkil qilinib, tajriba oshirilmoqda. Bolalar futbol rivoji uchun sarf etilgan sarmoyalarga allaqachon o'z natijasini ko'rsatib, futbolchilarning xorijning eng mashhur klublarida mahoratini namoyish qilmoqda.



tobora ortib bormoqda. Xalqaro musobaqalar mezbonligi orqali mamlakatimiz futbol infratuzilmasini yaxshilash, mutaxassislar

kunlarda bir qancha sport turlari bo'yicha dunyoning turli davlatlarida nufuzli bahslar o'tkazib borilmoqda. Ushbu turnirlarda



Akbar RAHMONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Dunyoda hech bir ish behikmat emas. Ammo har bir yutuq va natija zamiridagi, unga erishish yo'lidagi zahmatli mehnat mohiyatini ko'p ham o'ylab ko'ravermaymiz. Xullas, gap futzal bo'yicha 2024-yilgi Jahon chempionati O'zbekistonda o'tkazilishi va bu voqealarning tarixiy ahamiyati haqida.

2023-yil yoz oyida FIFA kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tgan edi. Muhim yangiliklarni o'z ichiga olgan yig'ilishda FIFA miqyosidagi qator musobaqalar, xususan, futzal va futbol bo'yicha Jahon chempionatiga mezbonlik qiluvchi mamlakatlar aniqlab olindi. Quvonarlisi, unda futzal bo'yicha 2024-yilgi Jahon chempionati o'tkaziladigan mamlakat sifatida O'zbekiston tanlandi.

Bu shunchaki tasodifiy emas, balki o'ylangan, o'rganilgan va e'tirof etilgan qaror edi. Qayida shu haqda tahliiliy fikr yuritishga harakat qilamiz.

MUVAFFAQIYATNING O'ZI KELMAYDI, UNGA ERISHILADI

Birinchi mezon. Bu kabi yirik sport musobaqalari hech qachon tasodifiy tanlangan mamlakatlarda o'tkazilmaydi. Lotereya kabi yutuqqa chiqmaydi.

Mamlakatimizda xalq manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilayotgan islohotlar, do'stona, o'zaro ishonch ruhida tashqi siyosat yuritish, tinchlikparvar, xalqchil islohotlar samarasi bugun dunyo miqyosida o'z so'zini aytga boshladi.

Keyingi yillarda O'zbekiston xalqaro nufuzli tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha katta tajriba to'pladi va butun dunyoga taalluqli, insoniyat farovonligi bilan bog'liq masalalarni muhokama qilish, ularga oqilona yechim topish uchun do'stona muloqot maydoniga aylanib ulgurdi.

Mana shu jihatning o'zi yangi O'zbekistonni dunyoga boshqatdan tanitdi. O'zbekiston dunyoga ochildi. Bu ham o'z-o'zidan bo'lib qolgan yo'q. Umuman, biror mamlakatdagi yangilanishlarga teran nigoh bilan qaralsa, avvalo, ichki siyosatdagi o'zgarishlar, oddiy odamlar manfaat ko'zlangan islohotlar tahlil qilinadi. Evrilishlar mamlakatning xalqaro imijini shakllantirib boradi. Sobit qadamlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlarga intilish va qiziqish har doim kuchli bo'lgan.

Shu ma'noda, futzal bo'yicha Jahon

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir: Salim DONIYOROV

Qabulxonasi: (71) 233-56-33 Devonxonasi va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayti: www.yuz.uz (71) 233-47-05

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. NASHR INDEKSI — 236. Buyurtma — 1969. 44065 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taqab. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Bahor Xidirova Musahhih: Asliddin Abdurazaqov Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 00:50 Topshirildi — 00:55